O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

ISSN 3030 - 3230

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

MAXSUS SON

www.mgjxu.uz

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120

t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

MUSTAQILLIGIMIZNING
33 YILLIGI

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
ОГЛАВЛЕНИЕ

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya organlarining o‘rni — **Djurayev R.M.** — 3

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqini takomillashtirish istiqbollari — **Rustambayev M.X.** — 7

Prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish: xorijiy tajriba misolida — **Samadov S.I.** — 10

Toshkent shahrida “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasini joriy etishning ijtimoiy zarurati va ahamiyati — **Tashpulatov A.A.** — 16

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etish samaradorligi — **Xatamov R.A.** — 21

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik deputati va Senat a’zosi huquqiy maqomining konstitutsiyaviy takomillashuvi — **Zulfiqarov Sh.X.** — 28

Insonning ekologik huquqini ta’minlash muammolari — **Usmonov M.B.** — 35

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyati — **Raximov A.** — 41

Yangilangan konstitutsiya sharoitida qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning istiqbollari — **Xusanova M.** — 48

Davlat chegarasi rejimini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish — **Xolbo‘tayev A.A** — 52

Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi: omillar va ularning o‘ziga xos jihatlari — **Abdullayev A.Y.** — 56

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning protsessual tartibini takomillashtirish masalalari — **Jo‘rayev J.R.** — 64

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy intizomni mustahkamlash va harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari — **Rizoyev F.F.** — 74

Актуальные вопросы обеспечения надежной защиты прав и интересов собственника имущества — **Чиниев Д.** — 78

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning meyoriy-huquqiy asoslari — **Kadirov M.B** — 82

Sha’n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlarning obyekti — **Sarsenbaev A.M.** — 88

Hozirgi davrda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy savodxonligini shakllantirishning pedagogik diagnostikasi — **Umbetov O.O.** — 92

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llashni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari tahlili — **Mirazov D.M., Ikanov A.A.** — 99

MUNDARIJA

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni jamoat xavfsizligiga salbiy ta'sirini baholash modellari
Sodiqov M. 106

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va barqarorligini mustahkamlashdagi siyosatining yangi tendensiyalari
Sattorov A.A. 111

O'zbekisatonda jamoat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash - Milliy gvardiya faoliyatining asosiy mezoni
Haydarov A.U. 116

Совершенствования военного законодательства в сфере подготовки квалифицированных кадров вооруженных Сил Китая
Девяткин А.В. 123

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda teleskopik tayoqlardan foydalanishning huquqiy asoslari: xorijiy tajriba
Yunusov D.B. 130

Оптоэлектронные метод определение содержания одного вещества в другом
Тураев Б.Э. 135

Favqulodda vaziyatlarda FPV dronlaridan foydalanish va talofatlar yuzasidan olingan tasvirlar orqali zararlarni minimallashtirish
Kuldashev I.X., Kamolov A.A. 139

Jangovor chaqiriq va uning mazmun-mohiyati
Bokiyev M.G. 143

Некоторые особенности стратегии «Справедливый казахстан»
Бариев Э.Ф. 147

Harbiy-kasbiy tayyorgarlik: mustaqillik yillarida
Isakov S.X. 151

Harbiy xizmatchilar maqomi haqidagi zamonaviy qarashlar
Tursunboyev A.A. 156

"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida zamonaviy islohotlar va ularning turizmga ta'siri
Tursunova S.R. 161

Mustaqillik yillarida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yangi mexanizmlarini shakllanishi
Salimov M.E. 165

Psychotechnical methods of detecting psychological stresses that negatively affect the service activities of servicemen
Shermatov F.T. 169

Psixologik xizmat – kadrlar salohiyatining muhim omili sifatida
Madjitov F.F. 175

Интеллект и его виды при осуществлении нежелательных действий в жизни и деятельности человека
ПоликарповВ. А., Кдирбаева Х.М. 178

O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish tushunchasi va uning mohiyati
Djaydakbayev F.T. 184

Iqlim o'zgarishlari sharoitida o'zbekistonda inkluziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash islohotlari va muammolari
Elov A.A. 189

Korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishda shartnomaning tutgan o'rni va ahamiyati
Nuridullayev A.A. 194

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA ORGANLARINING O‘RNI

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni,
general-mayor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rnini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari, uning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari va davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatlari ko‘rib chiqiladi. Milliy gvardiya organlari tomonidan jinoyatchilikning oldin olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qo‘llaniladigan chora-tadbirlar majmui muhokama qilingan.

Kalit so‘z: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, jamoat xavfsizligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tartibi, jinoyatchilik, tahdid.

Mamlakatimizda huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash, ularning sodir etilishini oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash amaliyotiga katta e’tibor qaratilib, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, kompleks yondashuvni talab qiladi.

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi: “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlikning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish”, hamda 17-maqsadi: “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish” masalalari belgilanib, O‘zbekistonda xavfsizlikni xususan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan.[3]

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi 2017-yil 4-avgust kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash va qonuniylikni himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu tuzilma barqarorlik va xavfsizlikni saqlashda, ayniqsa zamonaviy tahdid va xavflarga qarshi kurashishda muhim o‘rin egallaydi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari juda muhimdir: “Xavfsiz shahar-xavfsiz mamlakat” konsepsiyasiga asoslanib, bugun biz mamlakatda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shuning uchun yangi tuzilma – Milliy gvardiya yaratildi. Endi har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish va jamoat tartibini muhofaza qilish uchun javobgarlik Ichki ishlar vazirligiga ham, Milliy gvardiyaga ham yuklatiladi”. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni bilan hozirda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tegishli davlat idoralari tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.[4]

Ushbu Farmonda tegishli mas’ul tashkilotlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga ham bir qator vazifalar yuklatilgan bo‘lib, viloyatlar markazlari hamda Toshkent va Nukus shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari zimmasiga yuklatilib, javobgarlik hududlarida jamoat tartibini buzish bilan bog‘liq ma’muriy hamda ekologiya sohasiga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq jami 36 ta moddalar bo‘yicha vakolat berildi.

Olib borilgan islohotlar natijasida Patrul naryadlari tomonidan 2023-yil davomida 161 ta jinoyatlar aniqlandi, 300 dan ortiq jinoyatlarning sodir etilishini oldi olindi, 346 nafar qidiruvda yurgan shaxslar ushlandi, 22 nafar bedarak yo‘qolgan shaxslar topilib oilalariga qaytarildi. 2023-yil davomida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan 27 691 ta ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. [5]



Olib borilgan islohotlar natijasida Patrul naryadlari tomonidan 2023-yil davomida

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda jamoat xavfsizligi va tartibini, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishni, aholini turli terroristik tahdidlar, jinoiy va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilishni ta’minlaydi.

Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizlik tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biriga aylandi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tarkibiy bo‘linmalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Shuningdek, mamlakat rahbariyati tomonidan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlash yuzasidan belgilab berilgan vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya o‘z faoliyatini mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi – xavfsizlik sohasidagi davlat siyosati va tartibga solish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanib, uning tarkibiga milliy gvardiya qo‘shinlari, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni qo‘riqlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish kabi bir qator muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Davlat va jamoat xavfsizligining strategik maqsadlari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, davlat va hududiy yaxlitligini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolar tinchligini, jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlardan himoya qilishdir. Albatta keltirib o‘tilgan global strategik maqsadlarni zabt etishda Milliy gvardiya organlarining ham o‘z o‘rni bor.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni ta’minlashning ustuvor vazifasi inson va fuqaroning hayoti, sog‘lig‘i, yangi Konstitutsiyamizda kafolatlab qo‘yilgan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdir.

Jamoat xavfsizligi tizimi uni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kuch va vositalarni o‘z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlash, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan iborat bo‘lib, bunday vazifalarni ta’minlay oladigan idoralardan biri O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining yagona tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining respublikamizda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli va o‘rnini anglash uchun biz ushbu masalani ushbu organlarga yuklangan vazifalarni bajarilishi nuqtai nazari orqali ko‘rib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni bilan Milliy gvardiya organlari oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘yildi, ularning aksariyati davlatda jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgandir. Ushbu qonunining 3-moddasida nazarda tutilgan vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- **jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;**
- **terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;**
- **tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;**
- **davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;**
- **qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;**
- **huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;**
- **jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;**
- **favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlash;**
- **qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish;**
- **chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish;**
- **huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;**
- **O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalari bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashish kabilar kiradi. [2]**

Yuqorida keltirilganlarga qaramasdan shuni aytish joizki jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash sohasi hamon talab darajasida tashkil etilmaganligi namoyon bo‘lmayotganligi quyida keltirib o‘tilgan raqamlarda namoyon bo‘lmoqda.

O‘tgan yilda jamoat joylarida **5 774 ta** jinoyatlar, shundan **3 731 tasi** yoki **65 foizi** ko‘chalar va xiyobonlarda sodir etilgan.

Aynan Milliy gvardiya xizmat olib borayotgan hududlarda esa 485 ta, shundan 1 ta qotillik, 2 ta firibgarlik, 2 ta nomusga tegish, 3 ta bosqinchilik, 39 ta tan jarohati yetkazish, 25 ta talonchilik, 51 ta bezorilik va 362 ta o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan. [5]

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davomida ham bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, 2023-yil 25-noyabr kuni Toshkent shahridagi “Xumo-Arena” muz saroyida tashkil etilgan taniqli qo‘shiqchi ishtirokidagi konsertda yuzaga kelgan ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan hamkorlikda ishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligi natijasida tartibsizliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmadi. Natijada tartibsizliklar tasviri ijtimoiy tarmoqlarga tarqalib, fuqarolarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan salbiy fikr uyg‘onishiga sabab bo‘ldi. [5]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularni oldini olish hamda ommaviy tadbirlar vaqtida sodir etilayotgan ommaviy tartibsizliklarni zudlik bilan bartaraf etish va qonuniy qaror qabul qilishda yetarlicha ishlar olib borilmagan.

Jamoat tartibini saqlash muammolari o‘rganilishi va tahlil qilinishi, mazkur

muammolar bilan shug‘ullanish nafaqat Milliy gvardiya organlarning balki barcha davlat boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari, uyushmalar, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining, ijtimoiy va siyosiy institutlarning, jismoniy va yuridik shaxslarning, bir so‘z bilan aytganda shaxs, jamiyat va davlatning umumiy majburiyatlari ekanligini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Milliy gvardiya organlari mexanizmini yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarurligi uning xavfsizlik tizimidagi o‘rni muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu organning barqaror ishlashi fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va Davlat institutlariga ishonchni mustahkamlash kalitidir.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу роли Национальной гвардии Республики Узбекистан в обеспечении общественной безопасности. Рассмотрены основные задачи Национальной гвардии, ее взаимодействие с другими правоохранительными органами и государственными учреждениями. Обсуждался комплекс мер, применяемых органами Национальной гвардии для пресечения преступлений, поддержания общественного порядка и защиты прав граждан.

Ключевые слова: Национальная гвардия Республики Узбекистан, общественная безопасность, правоохранительные органы, общественный порядок, преступность, угрозы.

Abstract. This article is devoted to analyzing the role of the National Guard of the Republic of Uzbekistan in ensuring public safety. The main tasks of the National Guard, its interaction with other law enforcement agencies and government agencies are considered. A set of measures used by the National Guard authorities on the pre-acquisition of crime, the maintenance of Public Order and the protection of citizens ‘ rights has been discussed.

Key words: National Guard of the Republic of Uzbekistan, public security, law enforcement agencies, public order, crime, threat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy gvardiya jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlaydi. 18.01.2018. https://anhor.uz/uz/

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Markaziy devon ma’lumotlaridan.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor.

Mustaqillik yillarida yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda inson huquqini takomillashtirish amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida turuvchi eng ustuvor, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan asosiy masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekistonda davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlari ustuvor vazifa ekanligi, har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, yaxshi ta’lim olishi, unga oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasi yaratib berilishi”ni [1] alohida ta’kidlandi.

Yurtboshimiz tomonidan inson huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirishning yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Bular: inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozimligi, odamlarning sudma-sud sarson bo‘lib yurishiga barham berish uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo‘yicha viloyat sudlarining vakolati, mas’uliyatini oshirish kerakligi, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyani prokurordan sudga o‘tkazish muhimligi, mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo‘lishi zarurligi, tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerakligi, sudda ishlarni ko‘rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish lozimligi, odil sudlovni ta’minlashda himoyachining huquqlari kengaytirilishi, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ma’muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish kerakligi va h.k.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan normalar uch baravarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida ko‘rsatildi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. O‘lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi [2]. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo‘llash ko‘lami yanada kengaydi.

Ilk bor shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini

ta’minlaydi. Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

➤ Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi [3] belgilandiki, Bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘yadi.

➤ Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanib, tariximizda ilk bor Asosiy qonunda O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Ma’lumotlarga qaraganda o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa, bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda esa bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi. So‘nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko‘payib, 3,6 millionga yetgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Asosiy qonunimizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Aholimiz va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolishning konstitutsiyaviy kafolatlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Jumladan,

fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017-yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko‘paydi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o‘qituvchilarning professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro‘sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida o‘rnatildi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo davlatchiligi amaliyoti va tajribasida uchramagan, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan «inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat» barpo etish g‘oyasi ilgari surildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “inson qadri uchun” g‘oyasi ilgari surilar ekan, uning mazmuni va asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish, sifatli ta’lim olish zaruriyati ko‘rsatib berildi. Shuni aytish kerakki, inson qadri ulug‘lanadigan ijtimoiy xalqparvar davlatni barpo etish yangi O‘zbekistonni shakllantirishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O‘zbekistonning belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta’minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat ko‘rsatib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat tushuniladi.

Ayniqsa, keyingi yetti-sakkiz yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar - davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar, ijtimoiy, demokratik, dunyoviy davlat barpo etish yo‘lida ekanligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023;
3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

PROKURATURA ORGANLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH: XORIJIY TAJRIBA MISOLIDA

Samadov Salom Ismatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari
3-darajali Davlat adliya maslahatchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro hujjatlar, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili asosida prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tashkil etishning konseptual yondashuvlari ko‘rsatilgan va prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy huquqiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘z: korrupsiya, prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, prokuratura faoliyati, xalqaro huquq.

Jahon globallashuvining zamonaviy sharoitida korrupsiya global xususiyat kasb etib, nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyatiga xavf solmoqda. Korrupsiyaga qarshi yaxlit xalqaro strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo‘yicha izchil va muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridandir [1].

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, so‘nggi yillarda tub islohotlar davriga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda ham taraqqiyot kushandasi bo‘lgan illat – korrupsiyaga qarshi izchil kurash olib borilmoqda. Ushbu kurash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi [2].

Darhaqiqat, Prezidentimiz tashabbuslari bilan so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz “Transparency International” indeksida 42 pog‘onaga ko‘tarildi va bu borada mintaqamizda eng yuqori o‘rinni egallamoqda. 2030 yilga qadar mazkur reytingdagi o‘rnimizni yana 50 pog‘onaga yaxshilash maqsadini ko‘zlaganmiz. “Open Data Inventory” reytingida esa joriy yilda 30-o‘ringa ko‘tarildik. Ochiq ma’lumotlar manbalari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 4-o‘rindan joy olgan[3].

Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri va O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini amalga oshirishda va uning qat’iy bajarilishini ta’minlashda markaziy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan yagona markazlashgan organ hisoblanadi. Prokuratura organlari ushbu qonunning mamlakatimiz hududida aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida amalga oshiradi. Xususan, mazkur Konstitutsiyaning 143-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi[4].

> Prokuratura organlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqoridagi normalari, 2001-yil 29-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni [5] hamda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni [6] va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik prokuratura organlariga korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, korrupsiyaviy holatlar natijasida kelib

chiqadigan salbiy oqibatlarni bartaraf etish va uni kamaytirish borasida keng qamrovli ish olib borishda markaziy rolni yuklaydi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning va boshqa qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatining eng muhim sohalaridan biridir. Binobarin, mazkur Qonunning 4-moddasiga ko‘ra, vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyruqlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablari va shartlarini aniqlash va bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etish borasida prokurorlarning vazifalarini o‘z vaqtida bajarilishini tartibga soladi.

Mamlakatimizda barcha davlat organlari va institutlari qatorida O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari ham o‘zlariga qonun bilan belgilangan vakolatlari doirasida va huquqiy vositalari orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib kelmoqda. Zero, yuridik adabiyotlarda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun davlat va boshqaruv organlarida ham, xo‘jalik faoliyati sohasida ham ishlab chiqilgan muhim davlat huquqiy institutlaridan biri prokuratura hisoblanadi [7].

Shu o‘rinda Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, yurtimizda korrupsiya illatiga qarshi kurashish jarayoni umumxalq harakatiga aylanayotgan bugungi kunda prokuratura xodimlari alohida jonbozlik ko‘rsatib, o‘z tashabbuslari bilan barchaga namuna bo‘ladilar [8].

Prokurorlar korrupsiyaga qarshi kurash va kengroq ma’noda qonun ustuvorligini ta’minlashda markaziy shaxslardir. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlar “prokurorlarga ko‘proq ixtiyoriylik va mas’uliyat yuklashning butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan tendensiyasini” hujjatlashtirdi [9].

Korrupsiyaga qarshi kurash bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari tizimida prokuratura alohida o‘rin tutadi. Biroq, prokuratura tashkiloti va vakolatlari dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Funksional turiga ko‘ra barcha prokuratura organlari va ularning o‘xshashlarini ikki turga bo‘lish mumkin:

- **asosan nazorat qiluvchi organ (ko‘pchilik Mustaqil Davlatlar Ittifoqiga a’zo davlatlar, Vetnam, KXDR, XXR, Kuba, ba’zi Lotin Amerikasi davlatlari);**
- **asosan jinoiy ta’qib qiluvchi organ (boshqa barcha mamlakatlar).**

Bir qator mamlakatlarda prokurorlarning maxsus vakolatlari jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtirish tadbirlarini amalga oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olish hisoblanadi (Abxaziya, Belorusiya, Gruziya, Qozog‘iston, Litva, Moldova, Polsha, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina, Janubiy Osetiya) [10].

Xususan, 2015-yil 21-noyabrdagi 305-V-sonli “Turkmaniston prokuraturasi to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, prokurorlar “Turkmanistonning korrupsiyaga qarshi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan faoliyatini muvofiqlashtiradilar”. (3-moddaning 2-qismi).

Korrupsiyaga qarshi kurashning istiqbolli yo‘nalishi Yevropa Ittifoqida Yevropa prokuraturasining tashkil etilishi bo‘ldi. Uning vakolatiga moliyaviy jinoyatlar, firibgarlik, korrupsiya jinoyatlarini tergov qilish, shuningdek, Yevropa Ittifoqining tegishli sudlarida ayblovlarni qo‘llab-quvvatlash kiradi. Yevropa prokuraturasining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari milliy prokuraturasi bilan solishtirganda afzalligi uning ekstraterritorial yurisdiksiyasidir, bu transchegaraviy korrupsiyani tergov qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi [11].

Masalan, Yevropa prokuraturasi faoliyatining natijasida Bolgariya qishloq xo‘jaligi Davlat jamg‘armasi mansabdor shaxsining korrupsiya jinoyati uchun ayblov hukmining chiqarilishini qayd etish mumkin [12].

Korrupsiyaga qarshi xalqaro aktlar korrupsiyaga qarshi kurash organlarining ixtisoslashuvining asosiy mezonlarini belgilaydi, ularga quyidagilar kiradi: mustaqillik va avtonomiya; maxsus o‘qitilgan xodimlar; tegishli vakolatlar va resurslarning mavjudligi [13].

Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat muassasalaridan biri sifatida prokuratura mustaqilligi tamoyilining alohida ahamiyati xalqaro prokuratura Assotsiatsiyasining (Mejdunarodnaya assotsiatsiya prokurorov - (MAP) ishchi hujjatlarida bir necha bor ta’kidlangan. Zero, assotsiatsiya Prezidenti Jeyms Xemilton shunday ta’kidlaydi: “prokurorlar o‘z vakolatlarini amalga oshirishda rahbarlik qilishlari kerak bo‘lgan asosiy tamoyil mustaqillik tamoyilidir ... Bunday bosim sodir bo‘lgan joyda ... korrupsiya va davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish bilan kurashish imkonsiz bo‘lib qoladi” [14].

Aynan jahon amaliyotida prokurorlarning mustaqilligini ta’minlash maqsadida umumiy iyerarxik tizimdan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan prokuratura idoralarini ajratish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Avstriya, Ispaniya, Fransiya, Ruminiya [15], Meksika va boshqa ko‘plab mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi maxsus prokuratura idoralari tashkil etilgan.

Masalan, Avstriya Respublikasida federal darajada 200 ga yaqin prokurorlar va tuman sudlarida 200 dan ortiq prokurorlar mavjud. Federal darajada korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha prokuratura soni (2007-yilda tashkil etilgan) taxminan 40 kishini tashkil etadi.

Yevropa tajribasi ta’siri ostida Moldova va Ukrainada avtonom korrupsiyaga qarshi prokuratura idoralari tashkil etildi.

MDHning ayrim davlatlari xalqaro tajribani joriy etishda ham, korrupsiyaga qarshi kurashda ham sezilarli yutuqlarga erishganini tan olish lozim [16].

Shunga qaramay, korrupsiyaga qarshi kurashda ham ijobiy, ham salbiy tajribalar bir xil e’tiborga loyiqdir. MDHga a’zo davlatlarda prokuratura idoralari huquqni muhofaza qilish organlari tizimida alohida o‘rin tutadi va ularga davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyatida alohida o‘rin beriladi.

Masalan, Belarus Respublikasida bosh prokuratura korrupsiyaga qarshi kurashni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organi sifatida belgilangan. Belarus Respublikasi qonunchiligi unga bu sohada keng vakolatlar beradi.

Qirg‘iziston Respublikasida prokuratura organlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida keng vakolatlar berilgan, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ hujjatlarning qonuniyligi; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo‘yish vakolatlari; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini umumiy baholash.

MDH mamlakatlari milliy prokuraturalari tuzilmasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Masalan, Armaniston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Belarus Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida – Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish departamenti, Qozog‘iston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilmasida - Korrupsiyaga qarshi kurash va qonunlar ijrosini nazorat qilish departamenti va boshqalar tashkil etilgan.

Ozarbayjon Respublikasi prokuraturasi faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyati esa 2004-yilda ixtisoslashtirilgan bo‘linma — Ozarbayjon Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limining tashkil etilishi bo‘ldi.

MDH mamlakatlari prokuraturalari tuzilmasida avtonom maqomga ega bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan prokuratura organlari faoliyatini o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi.

Masalan, Moldova Respublikasining 2016-yil 25-fevraldagi 3-sonli “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan ixtisoslashtirilgan prokuratura organlari tarkibiga uyushgan jinoyatchilikka va alohida ishlarga qarshi kurash bo‘yicha prokuratura bilan bir qatorda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ham kiradi. (Qonunning 9-moddasi). U korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurashga ixtisoslashgan va o‘z vakolatlarini butun mamlakat bo‘ylab amalga oshiradi. Dastlab, korrupsiyaga qarshi prokuratura Moldova Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish departamentini qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha prokuror (uning o‘rinbosarlari va boshqarma boshliqlari) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlarini amalga oshirishda hududiy va ixtisoslashtirilgan prokurorlardan ustun ekanligini alohida ta’kidlash zarur.

Korrupsiyaga qarshi prokuratura maxsus vakolatlarga ega:

*** Korrupsiya holatlarida jinoiy ta’qib qilishni amalga oshiradi;**
*** Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy markazi yurisdiksiyasidagi ishlarni jinoiy javobgarlikka tortishni boshqaradi;**
*** Korrupsiya holatlari bo‘yicha davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaydi.**

Moldova korrupsiyaga qarshi kurash prokuraturasining faoliyati asosan jinoyatlarni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan:

- ***birinchidan, davlat xizmatchilari – katta menejerlar (harbiy unvonga ega shaxslar umumiy yoki unga mos keladigan maxsus unvon, shuningdek davlat korxonalarini boshqarish);***
- ***ikkinchidan, tergovchilar, prokurorlar, advokatlar, tijorat banklari rahbariyati;***
- ***Uchinchidan, ayniqsa keng ko‘lamli korrupsiya jinoyatlari.***

Korrupsiyaga qarshi kurashish prokuraturasi ishi bo‘yicha maxsus tergov faoliyati korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy markazi, axborot va xavfsizlik xizmati, ayrim hollarda Ichki ishlar vazirligi tarkibida yoki unga bo‘ysunadigan ixtisoslashtirilgan bo‘linmalarning qidiruv xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

MDHga a’zo bo‘lgan ko‘plab davlatlarda (Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston) prokurorlarga markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari, mintaqaviy vakillik va ijroiya organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari, tijorat va notijorat tashkilotlarining mansabdor shaxslari, boshqaruv organlari va rahbarlari tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi hamda qonunlar ijrosini nazorat qilish vakolati (umumiy nazorat) berilgan.

Deyarli barcha mamlakatlarda prokuratura o‘zining an’anaviy nazorat funksiyasi va korrupsiya jinoyatlarini jinoiy ta’qib qilishdan tashqari, butun huquqni muhofaza qilish tizimining korrupsiyaga qarshi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Belvrus, Qozog‘iston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston va Ukraina prokuraturalarida korrupsiyaga qarshi kurashda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlarining, shu jumladan Bosh prokuror raisligidagi muvofiqlashtiruvchi uchrashuvlari alohida ahamiyatga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha prokuratura faoliyatining istiqbolli yo‘nalishi jinoyat ishlarini qayd etish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishdir. Shunga o‘xshash axborot tizimlari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Ukrainada qo‘llaniladi.

Davlat xizmatchilari va davlat xizmatlari iste’molchilari o‘rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish korrupsiya sxemalarini qo‘llashni sezilarli darajada murakkablashtiradi va odatda ko‘plab mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi siyosat vositasi sifatida qaraladi. Biroq, raqamli muhit suiiste’mol qilishning yangi shakli — “elektron korrupsiya” (axborot poraxo‘rligi) paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi [17]. Dunyo mamlakatlari prokuraturalari uchun “elektron korrupsiya” ga qarshi kurashish yangi faoliyat sohasiga aylandi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi elektron platformalarda amalga oshirilgan davlat xaridlari bilan firibgarlikni aniqladi. Xususan, korrupsiya fitnasi paytida ariza matnida raqobatchilar davlat xaridlari tanlovida ishtirok eta olmasligi uchun rus alifbosidagi harflarga o‘xshash ba’zi lotin harflari mavjud edi [18].

Belarus Respublikasi prokuraturasi huquqni muhofaza qilish organlarining elektron ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda qarzdorga va uning oila a’zolariga pora uchun bosim o‘tkazgan ichki ishlar organlari xodimini jinoiy javobgarlikka tortdi [19].

Yuqoridagilarni sarhisob qilsak, bir qator xulosalar va takliflarni keltirish mumkin.

Xorijiy davlatlar prokuratura organlarini korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish va sohaning o‘ziga xos xususiyatlari muayyan davlatning siyosiy tizimi, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy rejimi, shuningdek, jamiyatning huquqiy mentalitet bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi faoliyatini tashkil etish va yanada takomillashtirish xorijiy tajribani o‘rganish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga asoslanishi lozim.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyat

prokuratura organlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ba’zi davlatlarda (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston) asosiy vazifasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘lgan maxsus organlar tashkil etilgan bo‘lsa, boshqalari huquqni muhofaza qilish organlarida ixtisoslashtirilgan bo‘linmalarni yaratish bilan cheklandi.

Bir qator MDH davlatlari muayyan xalqaro majburiyatlarni qabul qilish va korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni joriy etish muammolariga duch kelmoqda. Xususan, xalqaro tuzilmalarning tavsiyalari bir vaqtning o‘zida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan organlarning tashkil etilishiga, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura organlarining ajratilishiga olib keldi, bu esa, bir tomondan, ushbu organlar vakolatlarining takrorlanishiga ikkinchidan, idoralararo qarama-qarshilikka olib keldi (Moldova, Ukraina).

Yevropa davlatlarining aksariyat prokuratura organlari korrupsiyaga qarshi kurashda jinoiy-huquqiy sohadagi vakolatlari bilan cheklangan. Shu bilan birga, Rossiya prokuraturasi, aksariyat MDH mamlakatlari prokuraturasi singari, markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari, mintaqaviy vakillik va ijroiya organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish, nazorat qiluvchi organlar, ularning mansabdor shaxslari, boshqaruv organlari va tijorat va notijorat tashkilotlari rahbarlari, shuningdek, ular chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish (umumiy nazorat) vakolatiga ega.

MDHga a’zo davlatlarning aksariyatida hokimiyat Prokuratura organlariga korrupsiyaga oid jinoyatlarni jinoiy javobgarlikka tortish, nazorat qilish, shuningdek, davlat huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatlari berilgan.

O‘ylaymizki, xorijiy davlatlar prokuraturalari tomonidan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda oqilona chegaralar doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ijobiy tajriba O‘zbekiston prokuraturasi tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, jinoyatning yangi shakli – “elektron korrupsiya”ning paydo bo‘lishi prokurorlarni unga qarshi kurashishning yangi usullarini izlashga majbur qilmoqda. Bu borada korrupsiyaga qarshi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati sohasida SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) tahlilini joriy etgan Qozog‘iston Respublikasi prokuraturasining tajribasi e’tiborga loyiqdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikning muhim yo‘nalishi MDHga a’zo davlatlarning prokuratura organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun MDHga a’zo davlatlarning asosiy tashkilotida xorijiy davlatlar prokurorlarini tayyorlashdan iborat. Shu munosabat bilan MDH mamlakatlari prokurorlari uchun korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha malaka oshirish bo‘yicha bazaviy o‘quv dasturini ishlab chiqish dolzarb ko‘rinadi.

Bundan tashqari, Yevropa prokuraturasiga o‘xshab, kelajakda MDH davlatlari Bosh prokurorlarining muvofiqlashtiruvchi kengashiga korrupsiyaga qarshi kurashda prokurorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha vakolatlar berilishi mumkin.

Аннотация. В данной статье на основе анализа международных документов, национального законодательства и практики правоприменения показаны концептуальные подходы к организации антикоррупционной деятельности органов прокуратуры, а также проведен сравнительно-правовой анализ законодательства зарубежных стран, регулирующего представлена деятельность органов прокуратуры в сфере противодействия коррупции.

Ключевые слова: коррупция, организация деятельности прокуратуры, борьба с коррупцией, деятельность прокуратуры, международное право.

Abstract. This article shows conceptual approaches to the organization of anti-corruption activities of prosecutor’s offices based on the analysis of international documents, national legislation and law enforcement practices, and provides a comparative legal analysis of the legislation of foreign states regulating the activities of prosecutor’s offices in the field of anti-corruption.

Key words: corruption, organizing the activities of prosecutor’s offices, fight against corruption, activities of the prosecutor’s office, international law.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колесов М.В. Перспективные методы борьбы с коррупцией и коррупционными проявлениями // Проблемы укрепления законности и правопорядка: наука, практика, тенденции. 2019. № 12. С. 133–139

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2021. 427-бет

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидаги нутқи // https://president.uz/uz/lists/view/6934

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // https://lex.uz/docs/6445145

5. Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни // https://www.lex.uz/acts/106197

6. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни // https://lex.uz/docs/3088008?ONDATE=21.04.2021

7. Калита И.А. Деятельность органов прокуратуры по противодействию коррупции // Автореф. диссер. канд. юрид. наук. -Москва, 2013. -1 с.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Прокуратура органлари ходимлари ва фахрийларига йўллаган байрам табригидан. 2024-йил 8-январ

9. Langer, Máximo and David Alan Sklansky (2017). Prosecutors and democracy: A cross-national study. Cambridge University Press.

10. Научный доклад «Правовое регулирование и реализация полномочий прокуроров зарубежных стран» / Щерба С.П. и др. Университет прокуратуры РФ. 2021. 93 с

11. Кочеткова О.В. Офис Европейской общественной прокуратуры как новейший субъект противодействия преступности в Европейском союзе // Международное публичное и частное право. 2020. № 2. С. 13–16.

12. First EPPO indictment in Bulgaria: bribery of a State Fund Agriculture’s official // Официальный сайт Европейской общественной прокуратуры. URL: https://www.eppo.europa.eu/en/news/first-eppo-indictment-bulgariabribery-state-fund-agricultures-official

13. Қаранг: Масалан, БМТнинг 31.10.2003 йилдаги коррупцияга қарши Конвенцияси, коррупция учун жиноий жавобгарлик тўғрисидаги Конвенция (27.01.1999 куни Страсбургда тузилган), ва ҳоказо.

14. Васев А.В., Васева Т.А. Необходимость и возможность создания специальной правоохранительной службы по борьбе с коррупцией // Криминологический журнал Байкальского государственного университета экономики и права. 2012. № 2. С. 72–77

15. Кейинчалик Руминиянинг коррупцияга қарши прокуратураси коррупцияга қарши Миллий Дирекция деб ўзгартирилди.

16. Иманов И.А. Прокурорский надзор за исполнением законов о противодействии коррупции в Республике Казахстан: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2017. С. 212.

17. Мухамадиева Д.Н. Цифровизация против коррупции. Возникновение е-коррупции // Вестник Самарского государственного экономического университета. 2019. № 1 (171). С. 9–13.

18. Генеральная прокуратура РФ объявила предостережение заместителю руководителя Федерального агентства по науке и инновациям за нарушение требований законодательства о госзакупках // По данным сайта Генеральной прокуратуры РФ. URL: https://genproc.gov.ru/smi/ news/genproc/news-60899/

19. Харчейкина Ю.В. Преступления коррупционной направленности, совершаемые с применением цифровых технологий // Проблемы укрепления законности и правопорядка: наука, практика, тенденции. 2019. № 12. С. 262–270.

TOSHKENT SHAHRIDA “XAVFSIZ POYTAXT” KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING IJTIMOIY ZARURATI VA AHAMIYATI

Tashpulatov Aziz Anvarovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Dunyo hamjamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashning o‘ziga xos bo‘lgan samarali siyosatini tatbiq etish haqida qayg‘urmoqda. Bu borada shaxs, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoyalash, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy va samarali tizimini yo‘lga qo‘yish muammolari tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, kriminologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, oldini olish choralarini yaxshilash bilan har o‘nta jinoyatning yettitasini oldini olishga erishish mumkin [1].

Mamlakatimizda konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, **“aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hozirgi kunda eng muhim vazifadir”** [2].

Chunki farovon hayotning bosh manbai ham, barqaror taraqqiyotning asosiy omili ham tinchlik va osoyishtalikdir. Osoyishtalik mazmunan fuqarolarning o‘zaro ahil va tinch hayot kechirishidangina emas, balki ularning huquq va erkinliklari mustahkam himoya qilinadigan va to‘la ta’minlanadigan holatni anglatadi. Osoyishtalikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri jamoat tartibi va xavfsizligidir. Jamiyat hayotida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Toshkent shahri aholisi ko‘p sinovli davrlarni boshidan o‘tkazdi. Bu haqdagi aniq faktlarni esa poytaxt hududida 1989-2010 yillar davomida sodir etilgan terrorchilik, qo‘poruvchilik hamda turli ommaviy tartibbuzarliklarda ko‘rishimiz mumkin.

1999-yil 16-fevral kuni Toshkent shahrida mudhish portlashlar sodir bo‘ldi. Sh.Rashidov ko‘chasida qoldirilgan 2 ta avtomashinaga joylashtirilgan portlovchi moslamalar harakatga keltirilib, qo‘poruvchilik harakati amalga oshirilganligi, soat 10:55da O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi oldida “ГАЗ-21” rusumli avtomashinaga o‘rnatilgan portlash moslamasi harakatga keltirilishi, soat 11:00da X.Yusuf ko‘chasida “ЗАЗ” rusumli avtomashinaga o‘rnatilgan qo‘lbola portlash moslamasi portlatilishi, soat 11:20da Markaziy Bank binosi oldida “Audi-100” rusumli avtomashina hamda soat 12:00da Yakkasaroy tumani A.Qahhor ko‘chasi 22-uyning portlatilishi holatlari yuz beradi. Mazkur qo‘poruvchilik harakatlari natijasida 13 nafar begunoh odamlar, jumladan, 1 nafar ichki ishlar organi xodimi vafot etgan, 128 nafariga esa, turli darajadagi tan jarohatlari yetkazilgan.

2004-yil 30-iyul kuni soat 16:50 da O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining binosiga kirish yo‘lagida diniy-ekstremistik oqimi a’zosi badaniga mahkamlangan qo‘lbola portlatish qurilmasi orqali o‘zini portlatishi oqibatida bir nafar IIV Qo‘riqlash bo‘limi xodimi xizmat joyida vafot etgan, o‘n nafar fuqaro yaralangan. Soat 16:55da Toshkent shahrida joylashgan AQSH Elchixonasi yonida yana bir terrorchi tomonidan qo‘lbola yasalgan portlovchi moslamaning ishga keltirilishi natijasida ushbu joyda xizmat o‘tayotgan ikki nafar IIB xodimi yaralangan [3].

XXI asr bo‘sag‘asida dunyoda yuz bergan o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining

kuchayishi mamlakatimizda ham xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘ydi.

Shu bois Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 180-qarori bilan mahalliy hokimiyatlarda jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy yordam ko‘rsatish komissiyalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzurida yarashtirish komissiyalari va “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi tashkil etildi [4].

Bu tuzilmalar joylarda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirishga imkon berdi.

Ushbu huquqiy hujjat jamiyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash tizimining xizmat faoliyati bo‘yicha eng ko‘pqirrali, miqdori jihatdan ko‘p sonli aholi orasida u bilan yonma-yon turib xizmat faoliyatini olib boruvchi markaziy subyekt bo‘lgan ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlarni boshlab berdi [5].

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va ularga qarshi kurashish ichki ishlar organlari faoliyatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mavjud kuch va vositalarni jamoat joylariga to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni tegishli tartibda boshqarish hamda mazkur jarayonlarda keng jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni tashkil etish, shuningdek, sohaga ilg‘or tajriba va ish usullarini joriy etish, bu orqali fuqarolarning ishonchini qozonish ushbu sohadagi ustuvor masalalardan biri hisoblanadi [6].

Mustaqillik yillarida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta’minlashda ijobiy natijalar hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda sohani takomillashtirish maqsadida 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy qilindi. Zotan, el-yurt ishonchi va mehrini qozongan, tom ma’nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish faoliyatining samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Erishilayotgan natijalar bilan xotirjamlikka berilishga hech kimning haqqi yo‘q, hali oldimizda qilinadigan ishlar ko‘p”, degan fikrlarini alohida ta’kidlash joiz [7].

Jahonda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, transmilliy jinoyatlar va yot g‘oyalar ta’sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha zamonaviy va samarali tizimni yo‘lga qo‘yishni taqozoetmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh yo‘nalishiga aylantirish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha puxta o‘ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurati oshib bormoqda [8].

Professor S.I.Girkoning fikricha, jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligi juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligini ko‘rsatadi, uni hal qilish, boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog‘liq [9].

B.T.Xamxoyevning fikricha, jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga, ularning mol-mulkiga tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladigan ajralmas qismdir [10].

Hozirgi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga o‘z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Davomiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, O‘zbekiston Respublikasidagi vaziyat, butun mamlakat va undagi shaharlar aholisining ko‘payishi xavfsizlik organlari faoliyatiga ham yangi sifat talablarini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi urbanizatsiyani rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega bo‘lib mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining xususiyatlariga (shaharlarda yashovchi aholining kam qismi, iqtisodiyotdagi agrosanoat majmuasining yuqori ulushi) ham, joriy kursga ham xosdir.

Dunyodagi yetakchi tahlil agentliklarining prognozlariga, shuningdek, O‘zbekistonning 2035-yilgi uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga ko‘ra, Respublika aholisi 2035-yilga kelib 2019-yil qiymatidan 20-25 foizga o‘sishi mumkin. Mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish rejalariga ko‘ra, 2035-yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi aholisining qariyb 75 foizi shaharlarda yashaydi va shahar aholisining o‘sish sur’ati yiliga 2,3 foizni tashkil etadi.



Doimiy aholi soni

Aholining ko‘payishi bilan shaharlarning transport infratuzilmasiga yuk ortadi. Motorizatsiya, yuk va yo‘lovchilar tashish hajmi oshmoqda, shuningdek shahar yo‘llarida harakatlanish intensivligi oshmoqda. Ushbu jarayonlar transportda yuzaga keladigan tahdidlar ehtimolining oshishiga olib keladi va xavfsiz haydash madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy yo‘l harakati xavfsizligi vositalarini joriy etish va yo‘l maydonlarini optimallashtirishni taqozo etadi.

Aholi sonining ko‘payishi bilan ta’lim, sog‘liqni saqlash muassasalari va boshqa ijtimoiy obyektlar, shuningdek, odamlarning ommaviy yashash joylari soni ko‘paymoqda. Ushbu obyektlarning xavfsizligini yaxshiroq ta’minlash maqsadida, inqirozli vaziyatlar va hodisalarning yuzaga kelishini kuzatish va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun zamonaviy vositalarni joriy etish zarur.

Bundan tashqari, shaharlarning muhandislik infratuzilmasi, jumladan, uy-joy kommunal xo‘jaligiga yuk ortib bormoqda. Sanoat korxonalari soni ko‘paymoqda. Shu munosabat bilan shahar infratuzilmasi barqarorligi ko‘rsatkichlarini kuzatib borish va yuzaga keladigan hodisalarga tezkor javob berish imkoniyatlarini ta’minlash lozim.

Shaharlarning rivojlanishi va aholisining ko‘payishi favqulodda tezkor xizmatlarning ishiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada oshiradi. Hodisalar sonining ko‘payishi bilan so‘rovlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish, shuningdek javob beradigan bo‘linmalarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun sifat talablari oshadi.

Shaharning rivojlanishi, aholi yashash tarzining kengayishi va sonining o‘sishi bilan shaharga intilish va jinoyatchilikning oshishi o‘rtasida aniq bog‘liqlik mavjudligini e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Shahar markazlarida va markaz chekkalarida eng keskin jinoiy vaziyat rivojlanishi mumkin, bu esa jinoyatchilik darajasi bevosita aholi soni va zichligi bilan bog‘liq. Shahar va u yerdagi aholining zichligi qanchalik katta bo‘lsa, odatda, jinoiy faoliyatning potensial rentabelligi shuncha yuqori bo‘ladi [11].

Professor L.L.Popovning fikricha, jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan obyektlar va obyektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi [12].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasiga doimiy va tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan sayyohlik oqimi fonida mamlakatda xavfsizlikning umumiy darajasini yaxshilash orqali chet eldagi ijobiy imidjini yanada yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikada shaharlarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarga samarali javob

berish uchun xavfsizlikni ta’minlashga kompleks yondashuv bo‘lishi lozim. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi mavjud va yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi kurashishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kuzatuv kameralari, atrof-muhit parametrlari va muhim muhandislik tizimlarining ijro etuvchi mexanizmlari holatini kuzatish uchun sensorlar, saqlash moslamalari ilgari erishib bo‘lmaydigan imkoniyatlar, ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt elementlarini ishlab chiqish uchun dasturiy ta’minot - bularning barchasi xavfsizlikni ta’minlash samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda shaharlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda faqatgina chegaralarni himoyalash bilan cheklanib qolish mutlaqo mumkin emas. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yuqori shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida, jamiyatda ekologik va ijtimoiy muammolarga bo‘lgan e’tiborning kundan-kunga kuchayib borayotganligi, “xavfsiz shaharlar” tizimini yaratish va rivojlantirish masalasi naqadar dolzarbligini anglatadi.

Shaharlarni, shu jumladan poytaxtni har tomonlama rivojlantirishda jahon amaliyotida jamoat xavfsizligini ta’minlash va aholining turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadi - “aqlli va xavfsiz shaharlar” falsafasida mujassamlashadi.

“Jamoat xavfsizligini samarali ta’minlashning asosiy shartlaridan biri, ushbu faoliyatga jalb etilgan barcha turdagi kuch va vositalari, boshqa davlat organlari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikni ta’minlash hisoblanadi” [13].

Bugungi kunda respublikamizning barcha shahar va tumanlarining shiddat bilan rivojlanib kelayotganligi munosabati bilan uning markaziy ko‘chalari va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini va xavfsizligini hamda huquqbuzarliklarning oldini olishni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kuch va vositalar hamda usullardan foydalangan holda samarali ta’minlashga ehtiyoj sezilmoqda [14].

Ma’lumki, Toshkent shahri strategik va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu yerda jamoat tartibini saqlash o‘ziga xos jihatlarga ega. Bundan tashqari, Toshkent shahrida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilk tajribalar qo‘llanib, keyinchalik butun respublika bo‘ylab amaliyotga joriy etiladi [15].

Davlatimiz rahbari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda Toshkent shahrida fuqarolar hayoti va xavfsizligini ta’minlash borasida yaxlit faoliyat ko‘rsatuvchi tizim, uning barcha yo‘nalishlarida xavfsizlik tahdidlariga javob beradigan turli idoralar o‘rtasida funksiyalar taqsimoti mavjud.

Shu bilan birga, Toshkent shahri aholisi xavfsizligini yanada samarali ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud, jumladan:

- tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni kuzatish va bashorat qilish tizimi samarali ishlamayapti. Prognozlash usullari, xatarlar favqulodda vaziyatlar va tahlillar, inqirozli vaziyatlar va hodisalarga javob berish jarayonida idoralararo o‘zaro ta’sir texnik jihatdan yetarlicha rivojlanmagan;

- inqirozli vaziyatlar va hodisalarga javob berish vazifalarini hal qilishda ishtirok etadigan kuchlar va aktivlarni boshqarish ko‘pincha axborot tizimlarining yordamisiz amalga oshiriladi;

- inqirozli vaziyatlar va hodisalarga, aloqa vositalari va jihozlariga javob berish uchun mas’ul bo‘linmalarning jihozlanish darajasi pastligicha qolmoqda;

- inqirozli vaziyatlar va hodisalarni monitoring qilish, prognozlash va ularga javob berish, shu jumladan aholini xabardor qilish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ko‘rsatkichi past darajada.

Xulosa sifatida shuni qaydetish joizki, hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligini zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanmasdan talab darajasida ta’minlash mumkin emas. Haqiqatda xavfsiz hisoblanadigan shaharni yaratishda uning o‘zaro bog‘liq qismlari bo‘lgan “aqlli va xavfsiz shahar” konsepsiyalarini o‘z ichiga olgan murakkab muhit sifatida yondashilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев О.Т. (2022). Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, 1(6), 68-71.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқ депутатлари Хоразм вилояти Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2017. – 15 окт.

3. https://qriiv.uz/uz/menu/iiv-tarihi

4. Турсунов А., Расулев А. (2020). Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: ислоҳот, натижа ва истиқбол. in Library, 20(4), 46-49.

5. Назаров К. (2023). Мустақиллик йилларида ички ишлар органлари тизимидаги ислоҳотларнинг амалга оширилиши. Journal of fundamental studies, 1(8), 41-45.

6. Зиёдуллаев М. Ички ишлар органларининг таянч пунктларини бошқаришни такомиллаштириш: Монография. – Т., 2018. – 260 б.

7. Мухамедов Ў.Х.: Ўзбекистонда халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш истиқболлари: Монография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б. 217-218.

8. Абдуллаев О.Т.: Криминоген вазияти мураккаб бўлган ҳудудларда ички ишлар органлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда хорижий тажриба. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali, (2022). 1(6), 68-71.

9. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8.

10. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40–42.

11. Каримов А.А. (2022). Хавфсизликни таъминлаш ва йўл ҳаракатини тартибга солишда ақлли камеранинг ўрни. Innovation in the modern education system, 3(25), 273-283.

12. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административноюрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.

13. Шарипов С.С.: Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги ҳамкорлигини такомиллаштиришнинг айрим жиҳатлари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. №11 (2022). Б-21.

14. Азимов Т.С.: Ички ишлар органлари патруль-пост хизмати саф бўлинмаларининг алоҳида шароитларда амалга оширадиган фаолияти // Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг долзарб маса-лалари: Республика илмий-амалий конференцияси материал-лари (2019 йил 17 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. Б.145.

15. Мухамедов Ў.Х.: Ўзбекистонда халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш истиқболлари: Монография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б. 126-127.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATINI “XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILISH” TAMOYILI ASOSIDA TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Xatamov Rustam Abduganiyevich,
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jamoat xavfsizligini ta’minlash har qanday davrda ham davlatlarning, xususan, undagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblangan, u davlatning huquqni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish borasidagi kun tartibining eng muhim masalasidir. Inson qadrini ulug‘lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Mamlakat Prezidenti ta’kidlaganidek, “Biz bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O‘zbekiston davlatini, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda avvalo bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz” [1].

Ma’lumki, fuqarolarning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, ko‘p jihatdan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini samarali tashkil etishga bevosita bog‘liqdir. Bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarida “jamoat xavfsizligini ta’minlash – davlat mavjudligining barqaror, muhim va majburiy elementlaridan biridir” [2], “jamoat xavfsizligini ta’minlash – har qanday davrda ham davlatning xususan, undagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblangan” [3], “jamoat xavfsizligini ta’minlash – davlatning huquqni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish borasidagi kun tartibining eng muhim masalasidir” [4] deb, keltirilgan xulosalarga qo‘shilishimiz mumkin.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniq belgilash [5], jamoat xavfsizligini ta’minlashning yaxlit tizimini shakllantirish, tizimning eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash [6] kabilar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar doirasida ayniqsa, jamoat xavfsizlikni ta’minlashda aholiga xizmat ko‘rsatish va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, soha xizmatlarini yangi avlod texnologiyalari va dasturiy tizimlar bilan ta’minlash orqali ularning ish samaradorligini oshirish hamda xizmat faoliyatini maqsadga muvofiq modellar asosida tashkil etish (modellashtirish) kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning natijalarini quyidagi yo‘nalishlarga ajratgan holda ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Jamoat xavfsizligi faoliyatini huquqiy ta’minlash. Ma’lumki, faoliyatni samarali tashkil etishning asosiy belgilaridan biri uning maqsadi, vazifalari va funksiyalarini huquqiy tartibga solinishidir. Normalar – boshqaruv subyekti va obyektining huquqiy holatini, funksiyalarini mustahkamlaydi, jamiyat boshqaruv tizimining har bir ishtirokchisi mas’uliyatini oshiradi [7].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlilidan ko‘rish mumkinki, ushbu jarayonda faoliyatni zamon talablari

asosida huquqiy asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bugungi kunda ichki ishlar organlarining o‘ta mas’uliyatli, juda serqirra va rang-barang faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy maydondagi bo‘shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek alohida qonun doirasidagi ichki ishlar organlari faoliyatiga oid asosiy qoidalarni yagona tizimga solishni ta’minlash orqali tizimdagi islohotlarning mazmunan yangi bosqichini boshlab berdi [8].

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishda, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi hamda unda ishtirok etuvchi subyektlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligini aniq chegaralash [9], takrorlanuvchi va dolzarbligini yo‘qotgan vakolatlarni chiqarib tashlash, bo‘linmalarning tezkorligi va samaradorligini ta’minlovchi moddiy-texnik ta’minoti darajasini mustahkamlash, zamonaviy ilmiy-texnik vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash nazarda tutildi [10].

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, avvalo, mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch-osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatda qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, mazkur hujjatning ahamiyatli jihati shundaki, farmon bilan jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishning huquqiy asosi yaratildi. Shu vaqtga qadar bu borada to‘laqonli huquqiy asoslar mavjud emas edi. Mazkur farmon asosida, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda 2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat – “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da, jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi milliy manfaatlar, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, faoliyatning asosiy tamoyillari, davlat tomonidan tartibga solinishi, konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari va undan kutilayotgan natijalar kabi muhim masalalar huquqiy jihatdan mustahkamlandi [11].

Bu borada alohida e’tirof etish lozimki, shu vaqtga qadar jamoat xavfsizligi tushunchasining asl mazmun-mohiyati to‘g‘risida bir qator yanglish fikrlar mavjud bo‘lib, endilikda uning ma’nosi, aniq va ravon qoidasi ham huquqiy hujjat asosida tartibga solindi [12]. Xususan, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadigan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ning maqsadi ham mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etishda, sohani huquqiy asoslarini rivojlantirish borasida choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat hisoblanadi [13].

Jumladan,

- **jamoat xavfsizligi sohasida yagona qonun hujjat loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali ushbu sohaga mas’ul bo‘lgan vakolatli organlarning 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjat normalarini va qoidalarini birlashtirish;**

- **jamoat xavfsizligiga xavflarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni hamda asosiy ko‘rsatkichlarni (indikatorlarni) ishlab chiqish hamda joriy etish;**

- **transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish, davlat organlari hamda servis-xizmat ko‘rsatish subyektlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifa hamda funksiyalarini belgilovchi yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish;**

- **ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali, birinchidan, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning ma’lum bir idoraning manfaatlarini ko‘zlagan holda ishlab chiqilishi yoki unda boshqa subyektlarga majburiyat yuklovchi holatlarni bartaraf etish; ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlar bir qator**

qonun va qonunosti hujjatlarning tegishli normalari bilan tartibga solinishi ushbu sohadagi munosabatlarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish; uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlarni tizimlashtirish ushbu sohadagi subyektlarning xizmat faoliyatini amalga oshirishda huquqni qo'llash bo'yicha tushunmovchiliklarni bartaraf etish, shuningdek bir qator o'z yechimini kutayotgan huquqiy masalalarni ijobiy hal etilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklarning keskin oshib ketayotganligi hamda yo'l-transport hodisalarining og'ir oqibatlarini bartaraf etish yo'li sifatida, yo'l harakat xavfsizligi qoidalarini muntazam ravishda qasddan buzuvchilarga, og'ir oqibatlarga olib kelgan yo'l-transport hodisalarini sodir etganlarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish, shu jumladan ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, transport vositasini boshqarish huquqidan uzoq muddatga mahrum qilish tarzidagi jinoiy-huquqiy ta'sir chorasini joriy qilish, qoniqarsiz holati yo'l-transport hodisasiga, ayniqsa, o'limga olib kelgan yo'l yoki muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari tasarrufida bo'lgan tashkilotlar yoki organ rahbarlaridan moddiy zararni undirish tartibini joriy etish hamda ularning javobgarligini belgilash, transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir etiladigan "yo'lda bezorilik" holatlari bilan ifodalanadigan xatti-harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikni joriy etish, piyodalarni yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida ham aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [14].

Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini boshqarish va tashkil etish. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ularda mavjud kuchlarni uyushtirish, faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, muvofiqlashtirish va boshqarish talab etiladi. Boshqaruv nazariyasida "boshqarish" deganda muayyan tizim doirasida amalga oshiriladigan va boshqaruvchi organ (shaxs – boshqaruv subyekti)ning boshqariluvchi organlar (shaxslar – boshqaruv obyekti)ga ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Bunda tegishli sohaning xususiyatlari va qonuniyatlari, shuningdek boshqaruvchi va boshqariluvchining ma'lum subordinatsiyasi hisobga olinadi [15].

Mamlakatda "respublika – viloyat – tuman – mahalla" tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali tinchlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida, amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida quyidagi mutlaqo yangi mexanizmlarni amaliyotga joriy etildi:

☑ *birinchidan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi nazarda tutildi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;*

☑ *ikkinchidan, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohaviy xizmatlari faoliyatini boshqarish hamda muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilib, uning asosiy vazifalari belgilandi;*

☑ *uchinchidan, hududiy ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati tuzilmalari hamda rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida, ayrim rahbarlik lavozimlarining tugatilishi hisobidan hududiy va quyi ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etildi va patrul-post, yo'l-patrul xizmati bo'linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar hamda jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish, muqaddam sudlangan, probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash va tungi xizmatini tashkil etish uning asosiy vazifalari etib belgilandi [16].*

Shu asosda mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlarining quyi bo'g'inlari mustahkamlandi.

Islohotlar doirasida respublikaning

turizm salohiyatini yuksaltirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O‘zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi obro‘sini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda [17].

Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyatini boshqarish hamda tashkil etish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha o‘ziga xos milliy tizim shakllandi. Mazkur tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo‘ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo‘l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o‘zida birlashtirdi. Bu esa, transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini samarali ta’minlashning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tishga xizmat qildi.

Ma’lumki, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimi, Respublikaning boshqa ma’muriy hududidagi ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi bo‘linmalarni tashkil etish va boshqaruv tizimidan farqlanadi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining yaqin hamkorligi asosida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish, huquq-tartibotni va fuqarolar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi [18].

Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi bo‘linmalarning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi:

birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi barcha vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilish tartibi joriy etildi.

Yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida, Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Kengash yig‘ilishlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etish bo‘yicha manzilli choralar aniqlanishi nazarda tutildi;

ikkinchidan, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish;
- jinoyatlar, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarish va tashkil etishni takomillashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlilidan ko‘rish mumkinki, ushbu sohaga raqamlashtirishni keng joriy etilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, raqamlashtirish bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarga kirib borayotgan zamonaviy qulaylikdir. Ushbu qulayliklar bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida ham to‘liq joriy etilib borilmoqda. Kelgusida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida qog‘oz shaklidagi ish yuritishni maksimal darajada qisqartirish hamda elektron shaklda yuritiladigan hujjatlar ulushini 90 foizga yetkazish nazarda tutilgan [19].

Bundan tashqari, amalga oshirilgan islohotlar doirasida **“Xavfsiz poytaxt”, “Ravon va xavfsiz yo‘l” konsepsiyalari, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli”, “E-patrul” tizimlari, “Smart mahalla”, “E-jamoat xavfsizligi” axborot hamda “Xavfsiz shahar”** apparat-dasturiy komplekslari asosida faoliyatni tashkil etishda yangicha ish usullaridan foydalanish ko‘plab qulayliklar yaratishini isbotladi [20].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati uchun kadrlar tayyorlash. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng muhim chora-tadbirlaridan biri mazkur sohaning aniq mexanizmlar asosida ishlashi uchun zamonaviy fan va texnikadan xabardor bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashdir.

Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida

mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida tashkil etish; ikkinchidan, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu sohadagi bo‘linmalarining kadrlar salohiyatini oshirish; uchinchidan, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash; to‘rtinchidan, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish [21] kabilarni qamrab oladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, birinchidan, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ta’lim jarayonini tubdan isloh qilish natijasida oliy ta’limning ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) tizimi va rahbarlik tarkibidagi kadrlarni maqsadli tayyorlash mexanizmlarini joriy etilishi, jamoat xavfsizligini ta’minlash kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish; ikkinchidan, o‘quv jarayonining xizmat o‘tash qoidalari bilan uzviy bog‘langan tartibini o‘z ichiga olgan uzluksiz o‘qish-karyera tizimining joriy etilishi, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi xodimlarni malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash; uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimining joriy etilishi, sohaning asosiy bo‘g‘in bo‘linmalari hisoblangan jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha ofitser mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish imkonini bermoqda.

Mazkur sohadagi islohotlarning ahamiyatlisi shundaki, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tashkil etildi.

Universitet malakali kadrlarni maqsadli tayyorlovchi bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi. Universitetda dunyo tajribasida noyob bo‘lgan va mamlakat tarixida ilk marta yoshlarga oliy harbiy ta’lim muassasasida umumfuqaroviy asosda o‘qish imkoniyati yaratildi, harbiy sohada tahsil olish uchun qizlar qabul qilindi [22].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlanish. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ular orasida moddiy-texnik ta’minot muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunga kelib, inson faoliyatining biron-bir sohasi yo‘qki, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida unda ijobiy o‘zgarishlar yuz bermagan. Hozirda innovatsion texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda, bu esa jamiyatning boshqa sohalari qatori jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga ham yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobat bardoshligini oshirish vazifalarini yuklamoqda.

Bu borada Prezidentimizning “sohada qator o‘zgarishlar kiritishda, avvalambor, ko‘cha va jamoat joylaridagi xizmatlarning zamonaviy moddiy-texnik bazasini chet eldagi ilg‘or tajribalardan kelib chiqib, takomillashtirish talab etilmoqda” [23] degan fikrlari dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xodimlarning personal videoregistrator (bodikamera) bilan xizmatni o‘tashining yo‘lga qo‘yilganligi, kuzatish va mustaqil nazorat qilish imkoniyatiga ega intellektual kameralar («Smart»), huquqbuzarliklarga oid ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqishning elektron tizimli planshetlar, patrullik qilishga mo‘ljallangan maxsus avto va mototsikllar kabi texnika hamda texnologiyalar bilan ta’minlanishi, soha xodimlarining vaqtini tejash, kuch va vositalarning mobilligini oshirish, o‘z vaqtida va tezkorlik bilan jazo muqarrarligini ta’minlash, korrupsion holatlarini oldini olish, kuch va vositalarni tezkor boshqarish hamda fuqarolarning murojaatlariga tezda munosabat bildirish imkonini bermoqda.

Bugungi globallashuv davrida yangidan-yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda, jinoyatlarni sodir etish usul va vositalari, maqsadlari o‘zgarib bormoqda. Shu ma’noda aytish mumkinki, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini yanada oshirish borasida ham kelgusida amalga oshirishi rejalashtirilgan muhim ustuvor yo‘nalishlar mavjud. Mazkur ustuvor yo‘nalishlar jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining samaradorligini oshirish borasidagi istiqbollarni belgilab bermoqda.

Bu borada, jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga

qaratilgan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” hamda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlashga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, qabul qilingan “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” kabi hujjatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 16-maqsadi (Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish)ga muvofiq, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida; 17-maqsadi (Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish)ga muvofiq, ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish, shuningdek, “Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda [24].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining qonunga xilof tajovuzlardan himoyalanganlik holati sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tariladi. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda xodimlarning xizmat faoliyatini fuqarolarga ko‘maklashishga yo‘naltirish orqali aholining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlariga ishonchi ortishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи / [Электрон манба]. – URL: https://president.uz/uz/lists/view/4596 (Mirziyoev Sh.M. The independence of our country is a source of strength and inspiration for us, the basis of development and prosperity // President Shavkat Mirziyoyev’s speech at the solemn ceremony dedicated to the 30th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan).

2. Боер В.М., Шамрай В.Н. Теоретико-правовое обеспечение общественного порядка и общественной безопасности в современных условиях // Бизнес в законе. – 2012. – №3. – С. 161.

3. Ястребова А.И. К вопросу о взаимодействии общественных организатsій и органов полиции в сфере охраны общественного порядка в российской федератsіи // Вестник Московского университета МВД России. – № 3. – 2016. С. 91.

4. Мирзохофизиён М.М., Современное состояние административно-правового регулирования и организатsіи участия граждан республики таджикистан в обеспечении общественного порядка // Закон и право – 2020. – №03. – С. 167.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябрь) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон (2021 йил 26 март) фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон

7. Четвериков В.С. Административное право. Серия «Высшее образование». – Ростов-на-Дону, 2004. – С. 14

8. Ismailov I. Mahalla Law Enforcement Point (The Lowest Stage of Public Security System) // International Journal of Social Science Research and Review – Volume 5, – Issue 4. – April, 2022. – Pages: 71-76.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2940-сон (2017 йил 1 май) қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, , 01.12.2021 й., 07/21/5235/0840-сон, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон

10. Xatamov R.A. Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi islohotlar, ularning natija va istiqbollari // HUQUQIY OLAM ilmiy-amaliy jurnal. – No 1. – Sentabr. – 2022-yil. B. 11-12

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон (2021 йил 29 ноябрь) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

12. Рустамбоев М. Жамият ривожланиши ва инсон эркинликлари, қонуний манфаатлари таъминланишида катта ислоҳотларга йўл очилди // Янги Ўзбекистон (Ижтимоий-сиёсий газета). – № 261 (517), – 2021 йил 25 декабрь.

13. Ismailov I. The essence and contents of the concept of public security of new Uzbekistan // British View. Volume 7 Issue 1 2022. P. 10.

14. Тўраев Ж.Ш. Жамоат хавфсизлиги концепцияси – мамлакатда тинч ва осойишта ҳаётни таъминлаш гарови сифатида // Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). 2022. – V 2. – P. 239-246

15. Абдуллаев Б.Т. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш янги босқичга кўтарилади // https://uza.uz.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон (2021 йил 26 март) фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон (2022 йил 28 январь) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон

18. Зиёдуллаев М.З., Шарипов С.С. Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини такомиллаштириш: ислоҳотлар, уларнинг натижалари ва истиқболлари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2021 йил, – махсус сон. Б. 68

19. Абдуллаев Б.Т. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш янги босқичга кўтарилади // https://uza.uz/uz

20. Sharipov S.S. The Work of Law Enforcement Agencies on the Roofs of Information Technology Activities, Such as the Sector of Reform and Improvement of Results // International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5 May, 2022 Pages: 157-161.

21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органлари учун профессионал кадрларни тайёрлашнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5076-сон (2021 йил 15 апрель) қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2023 й., 07/23/10/0043-сон

22. Рустамбоев М. Жамият ривожланиши ва инсон эркинликлари, қонуний манфаатлари таъминланишида катта ислоҳотларга йўл очилди // Янги Ўзбекистон (Ижтимоий-сиёсий газета). – № 261 (517), – 2021 йил 25 декабрь.

23. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ишончли ҳимоя қилинмоғи зарур // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж. 1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 334

24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон (2022 йил 28 январь) фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK DEPUTATI VA SENAT A’ZOSI HUQUQIY MAQOMINING KONSTITUTSIYAVIY TAKOMILLASHUVI

Zulfiqarov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Huquqiy maqom huquqning umumiy nazariyasining asosiy va keng tarqalgan huquqiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Deputatlik mandatining xususiyati ko‘p jihatdan deputatning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini, uning huquq va majburiyatlarini, kafolatlari va mas’uliyatini belgilaydi. Aynan shu huquqiy kategoriya yordamida huquq subyektlarining ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mohiyati va o‘rni, ularning boshqa subyektlarga nisbatan huquq va majburiyatlari va shu kabilar aniqlanadi.

Kalit so‘z: deputat mandati, huquqiy maqom, huquq va majburiyat, mandat munosabatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiya vakillari bilan yig‘ilishdagi ma’ruzasida, “Demokratiya qayerdan boshlanadi – parlamentdan boshlanadi. “Parlament – demokratiya maktabi”, deymiz. Shunday ekan, milliy parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi kerak”ligini[1] alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Parlament a’zolari xalqning hokimiyat vakillik organlarida faoliyat ko‘rsatuvchi vakillaridir. Respublikamizning mustaqilligini mustahkamlashda, huquqiy davlat qurishda, chin ma’nodagi demokratiyaga erishishda ularning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli parlamentarizmni shakllantirish va rivojlantirishda parlament a’zolarining huquqiy maqomini takomillashtirish, ularning aholi oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiya vakillari bilan yig‘ilishdagi ma’ruzasida, “Ayni paytda bugun zamonning o‘zi barchamizdan, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarning vakillari, deputat va senatorlardan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishni, boshqalarga namuna ko‘rsatishni talab etmoqda”ligi”[2] alohida ta’kidlanib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining huquqiy maqomi, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasidan va o‘zbek xalqining milliy urf-odat me’yorlaridan kelib chiqib, har jihatdan puxta ishlab chiqilgan huquqiy asoslariga ega bo‘la boshladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan bo‘lib, Konstitutsiyaning o‘n sakkizinchi bobida, Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a’zosining faoliyati haqida so‘z boradi. Qolaversa, eng muhim huquqiy asos sifatida 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonundir”[3].

Rivojlangan davlatlar parlament a’zolarining huquqiy maqomi konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, joriy qonunlar, palatalarning reglamentlari va xalqning umumiy urf-odatlari bilan belgilanadi. Turli davlatlar parlament a’zolarining maqomi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular tarixiy va milliy xususiyatlarga, davlat qonunchiligining o‘ziga xosligiga, davlatning unitar yoki federativ shakliga va boshqa xususiyatlarga asoslangan.

Parlament a’zosining huquqiy maqomini belgilab beruvchi normalar ko‘plab xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Xususan, Polsha Respublikasining Konstitutsiyasida “Deputatlar va senatorlar” deb

ataladigan alohida bob mavjud bo‘lib, mazkur bob 7 ta moddani (102-108-moddalar) o‘z ichiga oladi”[4]. Mazkur moddalarda parlament a’zolarining maqomini belgilovchi asosiy qoidalar yoritib berilgan. Parlament a’zolarining huquqiy maqomi Germaniya Federativ Respublikasida “Germaniya Bundestagi a’zolarining huquqiy munosabatlari to‘g‘risida”gi 1977 yil qonunda ham o‘z ifodasini topgan.

Parlament a’zosining huquqiy maqomi xususida huquqshunos olim R.Qayumov “deputatning huquqiy maqomi - bu deputatlarning huquqiy normalarda belgilangan huquqlari, majburiyatlari va burchlari, ular faoliyatining shakllari va vakolatlarining yig‘indisi demakdir” deb ta’kidlaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a’zosining maqomi deganda, Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a’zosining huquqlari, majburiyatlari hamda deputatlik, senatorlik faoliyatining asosiy kafolatlari tushuniladi.

Professor O.T.Husanov “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunning mazmunini tahlil etib, quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ushbu qonunda deputat maqomiga tegishli bo‘lgan barcha masalalarni – kimlar deputat bo‘lishi; ularning vakolat muddatlari; deputatlikni tasdiqlovchi vositalar; deputatning Oliy Majlisdagi ishi kabi masalalarning qonuniy asosda mustahkamlanganligini; deputatning huquq va majburiyatlarini; deputatlarning saylovchilar, siyosiy partiyalar bilan olib boradigan ishlarini; deputatning parlament so‘rovini; deputat odobini o‘z ichiga qamrab olgan”[5].

O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentning shakllanishi, ular a’zolarining huquqiy holatiga ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Qabul qilingan huquqiy hujjatlar parlament a’zolarining faol harakat qilishlari, ularning qonunchilik jarayonida, qolaversa, xalq vakili sifatida faoliyat olib borishlariga huquqiy zamin yaratib berdi.

Mazkur qoida mazmunidan anglaniladiki, O‘zbekiston Respublikasida parlamentning ikki palataliligiga muvofiq ravishda, parlament a’zolarining ham ikki toifasi mavjud: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati (deputat) va Senati a’zosi (senator).

Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan va O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylangan va O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Senatga tayinlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi esa senator hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi Oliy Majlisning vakolat muddatiga, ya’ni besh yil muddatga saylanadi (tayinlanadi).

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qonunchilikka muvofiq, deputat va senatorning vakolatlari muddatidan oldin ham tugatilishi mumkin. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zosining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

- ☑ **u o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish haqida yozma ariza bergan taqdirda;**
- ☑ **u qonunga ko‘ra deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga nomuvofiq bo‘lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;**
- ☑ **unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;**
- ☑ **deputat, Senatda doimiy asosda ishlovchi senator haq to‘lanadigan tegishli turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida ogohlantirish olganidan keyin haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat (ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari) bilan shug‘ullangan taqdirda;**
- ☑ **tegishli palata, siyosiy partiya fraksiyasi, o‘zi tarkibiga saylangan qo‘mita, komissiya faoliyatida bir kalendar yil ichida o‘ttiz yoki undan ortiq ish kuni uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan taqdirda;**
- ☑ **chet davlatning doimiy yashash guvohnomasini yoki chet davlat hududida doimiy yashash huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatni olgan taqdirda;**

- ☑ **partiya ro‘yxati asosida saylangan deputat o‘zini deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiya a’zoligidan chiqqan taqdirda;**
- ☑ **u chaqirib olingan taqdirda;**
- ☑ **sud uni muomalaga layoqatsiz deb topgan taqdirda;**
- ☑ **u sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoxud vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda;**
- ☑ **u O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda;**
- ☑ **u vafot etgan taqdirda;**
- ☑ **palata tarqatib yuborilgan taqdirda.**

Alohida hollarda deputatning, senatorning vakolatlari tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat, senator degan yuksak nomga dog‘ tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Qayd etish lozimki, 2023 yil 18 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun asosida mamlakatmiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tadigan saylovlar aralash saylov tizimi, ya’ni, majoritar - proporsional tizim asosida bo‘lib o‘tishi belgilab qo‘yildi.

Shundan kelib chiqib, 2024 yil 2 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga tegishli qo‘shimcha kiritildi. Ya’ni, partiya ro‘yxati asosida saylangan deputat o‘zini deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiya a’zoligidan chiqqan taqdirda, vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi mumkinligi belgilab qo‘yildi. Bu albatta, siyosiy partiyalar va deputatlar o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat va javobgarlikni kuchaytiradi.

Ta’kidlash joizki, jahon mamlakatlari konstitutsiyaviy amaliyotida parlament a’zosining maqomiga uning bu lavozimni qay usulda egallashiga muvofiq ravishda turlicha yondashish holatlari ham mavjud. Masalan, Buyuk Britaniyada Parlamentning yuqori – “Lordlar palatasi tarixiy an’anaga muvofiq, saylov asosida shakllantirilmaydi. Palataga a’zolik tegishli dvoryan unvonini olish bilan bog‘liq. Lordlar palatasi a’zolari orasida 1195 gersog, markiz, graf, vikont, baronlar bor. Parlament a’zolari – perlar diniy, dunyoviy, merosxo‘rlar va butun umrga saylanganlar toifalaridir. Diniy toifaga 26 arxiyepiskop va yepiskoplar mansub. Ular o‘z lavozimiga ko‘ra palata a’zolaridir. Palataning qolgan barcha a’zolari dunyoviy toifaga mansub. Asosiy guruhlardagi a’zolar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan merosxo‘rlardan iborat (ular 789 a’zoni tashkil qiladi). Palatada 359 ta ijtimoiy va siyosiy faoliyatda alohida nufuzga ega umrbod tayinlangan a’zolar bor. Palataning 11 a’zosi apellatsiya bo‘yicha lord-ordinarlar hisoblanadi. Ular yuqori sud lavozimlarida ishlab, sud ishlarini ko‘rib chiqishda yordam berishadi”[6]. O‘z navbatida lavozimga ega bo‘lish usulidagi ushbu farqlar tegishli toifalarning huquqiy maqomi ham o‘zaro farqlanishiga sabab bo‘lgan.

Qonunga muvofiq, deputat va senatorning huquqiy maqomi ikki guruhdagi normalar yig‘indisidan iborat: 1) deputatning, senatorning huquqlari va majburiyatlari; 2) Deputat va senator faoliyatining asosiy kafolatlari.

Deputat, senator tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning majlisida ko‘rib chiqilayotgan barcha masalalar bo‘yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan deputat, senator:palataning organlariga saylash va saylanishga;palata majlisida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;palata tomonidan tuziladigan organlarning shaxsiy tarkibi hamda saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo‘yicha fikr bildirishga;so‘rov bilan murojaat etishga;O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek,palata qarorlarining bajarilishini tekshirish haqida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga va boshqa bir qator huquqlarga ega.

Qonunchilikda deputat, senatorning huquqlari bilan bir qatorda, ularning majburiyatlari ham belgilangan. Deputat va senator tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning majlislarida, shuningdek palataning qaysi qo‘mitasi, komissiyasi tarkibiga, kelishuv komissiyasi tarkibiga saylangan bo‘lsa, shu qo‘mita, komissiyaning majlislarida qatnashishi, ovoz berishda Qonunchilik palatasining, Senatning reglamentlarida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etishi shart.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senatning qo‘mita, komissiya, kelishuv komissiyasi majlisida ishtirok etish imkoniyati

bo‘lmagan taqdirda deputat, senator bu haqda tegishincha Qonunchilik palatasining Spikeriga, Senat Raisiga, qo‘mita, komissiya raisiga, kelishuv komissiyasining tegishli palatadan saylangan hamraisiga oldindan xabar qilishi shart.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, Qonunchilik palatasi deputatining maqomida Senat a’zosining maqomidan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar, asosan, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

➤ **birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasi deputati qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Oliy Majlis Senati esa, qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli;**

➤ **ikkinchidan, Qonunchilik palatasining siyosiy partiyadan ko‘rsatiladigan kamida besh nafar deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda, o‘z partiyalari manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida, fraksiyalarini tuzishlari mumkin. Senatorlar tomonidan esa, hududiy mansublikka ko‘ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.**

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2023-yil 18-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonun asosida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasi, ikkinchi qismiga “kamida to‘qqiz nafar” degan so‘zlar “kamida besh nafar” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Bu albatta, siyosiy partiyalar ro‘yxati asosida deputatlik mandatiga ega bo‘ladigan siyosiy partiyalarga zaruriy huquqiy kafolat sifatida imkoniyat yaratadi;

➤ **uchinchidan, deputat o‘z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog‘lab turadi, Qonunchilik palatasida ularning manfaatlarini ifoda etadi.. Shuning uchun ham, deputat o‘ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqishi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko‘rishi, fuqarolarni qabul qilishi, vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida bir marta, saylovchilarga o‘z faoliyati haqida axborot berishi lozim. Agar deputat saylovchilarning ishonchini oqlay olmasa, qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin. Senatorning mandati esa, saylovchilarga bog‘liq emas. U o‘z hududining vakili sifatida joylardagi vakillik organlari bilan aloqa bog‘lab turadi.**

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunga alohida VIII bo‘lim”[7], ya’ni Qonunchilik palatasi deputatining saylovchilar, siyosiy partiya bilan ishlarini tashkil etish tartibi deb nomlandi. Ushbu bo‘limda Qonunchilik palatasi deputatining saylovchilar, siyosiy partiya bilan ishlari, Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi ishlarini tashkil etish, Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi ishlarini tashkil etishga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘maklashish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish kabi qoidalar mustahkamlanib qo‘yildi.

Deputat, senatorning huquqlari va majburiyatlari bilan bog‘liq yana bir masala - ijtimoiy axloq normalariga asoslanuvchi deputatlik va senatorlik odobi qoidalaridir. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida deputat, senator odob qoidalariga qat’iy rioya etishi lozimligi, deputatning, senatorning o‘z maqomidan fuqarolarning, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. Deputatlik, senatorlik odobi buzilgan taqdirda deputatning, senatorning xulq-atvori to‘g‘risidagi masala tegishli palata tomonidan yoki uning topshirig‘iga binoan palataning organi tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkinligi to‘g‘risidagi norma ham mazkur moddada o‘z ifodasini topgan.

Qonunlarga rioya qilish, ularni ijro etish va qonun normalari bilan tartibga solishga ehtiyoj tug‘ilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, amaldagi qonun hujjatlarini hayot talablari bilan muntazam uyg‘unlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, parlament nazorati qonun chiqaruvchi organning hozirgi kundagi eng samarali ko‘rinishi hisoblanadi. Parlament nazorati qonun hujjatlari ta’sirchanligini oshirishning va ayni chog‘da jamiyatning huquqiy ehtiyojlarini tezkor aniqlashning samarali vositasi hisoblanadi. Parlamentning nazorat vazifalari muhimligini qayd etgan fransuz tadqiqotchisi B. Shante bu hatto tarixiy jihatdan qonunchilik vazifasi ham undan kelib

chiqqan, deb hisoblaydi”[8].

Oliy Majlis palatalari a’zolari qonunlarning ijrosi ustidan muntazam nazoratni tashkil etish tajribasini to‘play borib, o‘z saylovchilarining fikr-mulohazalarini sinchiklab o‘rganmoqdalar, tegishli soha mutaxassislari bilan samarali hamkorlik qilmoqdalar. Bu ko‘p jihatdan fuqarolarning xohish-irodasi, mutaxassislar va ekspertlarning takliflari qonunlarni takomillashtirishda muhim omil bo‘lishiga yordam bermoqda.

“Albatta, qonun chiqaruvchi hokimiyat o‘zining istalgan ko‘rinishida hukumatni nazorat qilar va faoliyatiga qonuniy tus berar ekan, unga hukmini o‘tkaza olmaydi. Bu demokratiyaning a’moli”[9].

Darhaqiqat, parlament nazoratining muhim ko‘rinishi sifatida, parlament so‘rovi, deputat va senator so‘rovi parlament a’zolarining davlat boshqaruv organlari bilan munosabatlarida muhim o‘rin tutadi. 2015-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga ba’zi bir o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, deputat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan, senator esa tegishli hududlarning manfaatlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan so‘rov yuborishga haqli.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari deputat, senator so‘roviga, agar boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay yozma javob yuboradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlari rahbarlari nomiga yo‘llangan deputat, senator so‘rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo‘lishi mumkin emas. Izoh tariqasida, ushbu yangi qoida kiritilgunga qadar deputat va senator so‘rovi umumiy tarzda parlament so‘rovi deb nomlanar edi.

E’tibor qarating, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183- moddasiga ko‘ra, bezorilik, ya’ni jamoat joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik uchun- bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Shundan ham ko‘rinib turibdiki, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarining o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyati ikki hissasi oshadi.

2016-yil 11-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunda Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a’zosining so‘rovi parlament nazorati muhim bir shakli sifatida mustahkamlab qo‘yildi.

Mazkur qonunning so‘rov bilan bog‘liq bo‘lgan normalarining amaldagi ijrosini tahlil qilar ekanmiz, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 2017 yil yakunlariga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga saylovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan 134 ta deputat so‘rovi yuborganliklarining guvohi bo‘lamiz”[10].

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan oxirgi o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq, bir qancha yangi qoidalar kiritildi. Xususan, Deputat o‘z okrugi saylovchilari, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog‘lab turadi, Qonunchilik palatasida ularning manfaatlarini ifoda etadi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari har yili Qonunchilik palatasining Kengashi bilan birgalikda deputatlarning saylovchilar bilan saylov okruglaridagi ishlari uchun mo‘ljallangan vaqtni belgilaydi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish chog‘ida deputat:

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyati, siyosiy partiya fraksiyasining faoliyati, uning mamlakatni sotsial-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishning eng muhim masalalariga doir nuqtai nazari to‘g‘risida saylovchilarga axborot beradi;

yangi qabul qilingan qonunlarning mohiyatini saylovchilarga yetkazadi;

qabul qilingan qonunlarning ijro etilishi holatini huquqning qo‘llanilish samaradorligini

va qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruratini aniqlash maqsadida o‘rganadi;

siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanadigan boshqa vazifalarni bajaradi.

Qonunchilik palatasining Kengashi deputatning saylov okrugidagi ishlarini tashkil etish yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiyalarining fikrlari va takliflarini inobatga olgan holda chora-tadbirlar ko‘radi. Deputat saylov okrugiga chiqishidan oldin siyosiy partiya fraksiyasi hamda Qonunchilik palatasi tomonidan hujjatlar, zarur axborot va ma’lumot materiallari bilan ta’minlanadi. Qonunlarning ijrosi, davlat dasturlarini hamda siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlarini amalga oshirish yuzasidan aniq masalalarni ishlab chiqish uchun siyosiy partiyalar fraksiyalari zarur bo‘lgan hollarda o‘z deputatlarining saylovchilar bilan saylov okruglaridagi ishlarini tashkil etadi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari deputatlarning saylov okruglaridagi ishlari yakunlarini umumlashtiradi zarur bo‘lgan hollarda dolzarb masalalarni Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari deputatni saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlaydi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari binolar ajratilishini tashkil etadi, fuqarolarni deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari o‘tkaziladigan, deputat tomonidan fuqarolar qabul qilinadigan vaqt va joy haqida xabardor qiladi, qabullarda va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun o‘z mas’ul vakillarini deputatning taklifiga ko‘ra yuboradi, shuningdek deputatning joylardagi ishiga ko‘maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar ko‘radi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning Qonunchilik palatasiga kelib tushgan murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda Qonunchilik palatasida jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining shaxsiy qabulini o‘tkazish deputatlar tomonidan qonunga hamda Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, deputat o‘zini deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan aloqasini saqlab turish hamda o‘z saylov okrugidagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun yordamchiga ega bo‘lishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarosi deputatning yordamchisi bo‘lishi mumkin.

Deputatning yordamchisi: deputatning uni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiya, uning tegishli saylov okrugidagi hududiy bo‘limi hamda saylovchilar bilan samarali aloqa o‘rnatishiga ko‘maklashadi; saylov okrugida jismoniy va yuridik shaxslardan deputat nomiga kelib tushgan murojaatlarni ro‘yxatga oladi va bu haqda deputatni xabardor qiladi; jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini deputat tomonidan qabul qilinishiga, shuningdek deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga ko‘maklashadi; saylov okrugi hududida deputatning vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq ishlarni deputatning topshirig‘iga ko‘ra tashkil etadi; okrug saylovchilarini deputatning faoliyati to‘g‘risida xabardor qiladi; deputatning murojaatlarini, so‘rovlarini tayyorlashda hamda saylov okrugida deputat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan olingan murojaatlar ko‘rib chiqilishida ishtirok etadi, murojaatlarda bayon etilgan masalalarni o‘rganadi;

deputatning o‘z vakolatlarini amalga oshirishga doir boshqa topshiriqlarini bajaradi.

Albatta, deputatlarga yordamchilik institutining joriy qilinishi, deputatlarga har tomonlama samarali faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratadi.

Parlament a’zolarining qonunchilik jarayonidagi ishtirokiga baho beradigan bo‘lsak, ta’kidlash kerakki, 2023 yilda Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan 13 ta yaxlit qonun loyihasi tashabbus qilindi. Qonunchilik palatasiga kiritilgan har bir qonun loyihasining muhokamasi deputatlar tomonidan berilgan ko‘plab savollar, bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va e’tirozlar natijasidagi keskin bahs-munozara va tortishuvlar asosida o‘tkazildi. Qonunchilik palatasi majlisida qonun loyihalari yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan bildirilgan qat’iy pozitsiyalar, prinsipial fikrlar hamda takliflarga asosan 4 ta qonun loyihasi qayta ishlanishi, ulardagi normalar yanada takomillashtirilishi uchun mas’ul qo‘mitalarga qaytarildi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil mobaynida 100 ta qonun, shundan 14 tasi yangi qonun, 52 tasi yaxlit qonun, 19 tasi jamlanma (50 ta qonun loyihasini o‘z ichiga olgan) hamda 15 tasi ratifikatsiya qilishga doir qonun qabul qilindi hamda ular ma’qullash uchun Senatga yuborildi [11].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zosining faoliyatiga doir qonunchilik normalarini yanada takomillashtirish, ularning qonunchilik jarayonidagi ishtirokini yanada kuchaytirish, xalq vakili sifatidagi o‘rni va rolini yanada oshirish, haqiqiy demokratiya maktabidagi faoliyatini yangi bosqichda takomillashtirish lozim.

Аннотация. Правовой статус считается одной из ключевых и широко распространенных юридических категорий общей теории права. Природа депутатского мандата во многом обуславливает конституционно-правовой статус депутата, его права и обязанности, гарантии и ответственность. Именно с помощью данной юридической категории определяется природа, место субъектов права в системе общественных отношений, их права и обязанности по отношению к иным субъектам и тому подобное.

Ключевые слова: мандат депутата, правовой статус, права и обязанности, мандатные отношения.

Abstract. The legal status is considered a key and common legal category theory of law. The nature of the parliamentary man-date largely determines the constitutional-legal status of a member, his rights and obligations, warranties and liability. This category defines nature, the place of the subjects of law in the system of social relations, their rights and obligations in relation to the other actors, and the like.

Key words: the mandate of the Deputy, the legal status, rights and responsibilities, mandate relationship.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.552.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.541.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг мақоми тўғрисида”ги Ўзбекистон Репсубликасининг қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2005.– №1. – 8–модда.
4. Қаранг: Конституции Центральной и Восточной Европы.– М.:Норма, 1997.–С.221–223.
5. Ҳусанов О. Ваколат ва масъулият // Ҳаёт ва қонун. 2005.– №1. – Б.3.
6. Шарифхўжаев М.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. 2005. -38-бет.
7. Ўзбекисатон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2015 йил, 645 – модда.
8. Қаранг: Керимов А.Д. Парламентское право Франции. – М.: Норма, 1998.– С.78.
9. Левитин Л., Карлайл Д. Ислом Каримов – янги Ўзбекистон Президенти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б.108 .
10. ЎзбекистонРеспубликаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг расмий веб-сайти. www.parliament.gov.uz. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2023 йилдаги фаолият якунлари бўйича ахбороти.
11. ЎзбекистонРеспубликаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг расмий веб-сайти. www.parliament.gov.uz. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2023 йилдаги фаолият якунлари бўйича ахбороти.

INSONNING EKOLOGIK HUQUQINI TA’MINLASH MUAMMOLARI

Muhammadi USMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada ekologik xavfsizlikni ta’minlash muammolari, uning inson ekologik huquqlariga ta’siri, ekologik barqarorlikni ta’minlashda konstitutsiyaviy normalarning roli va insonning ekologik huquqlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekologik xavfsizlik, milliy xavfsizlik, ekologik barqarorlik, ekologiya huquqi, ekologiya qonunchiligi, atrof tabiiy muhit, tabiat obyektlari, barqaror rivojlanish.

Inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga raxna solayotgan ekologik muammolar sayyoramizning taqdiriga befarq bo‘lmagan har bir kishini tashvishlantirmay qo‘ymaydi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyoda ro‘y bergan sanoat inqilobi yer osti boyliklarini ayovsiz qazib olish, havoga zararli gazlar chiqarish evaziga amalga oshirildi. Bu kabi har bir “ozor” uchun tabiat tovon talab qilishi tabiiy holdir. Global iqlim o‘zgarishi, chang-tuz-qum bo‘ronlari, suv tanqisligi, bioxilmaxillikning qisqarishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera havosi o‘rtacha haroratining ko‘tarilishi kabi ulkan muammolar girdobida qolayotganligimiz insoniyatning o‘z xatolari uchun tabiatga to‘layotgan “tovon” pulidir.

Ekologik muammolarning dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ta’kidlaganidek,

> *“...aholini, ayniqsa, qishloq joylarda toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maishiy chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalasi ham oldimizda turgan eng og‘ir muammodir. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur” [1].*

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda odamlarning ommaviy kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining kamayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq yangidan-yangi kasalliklar, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Hozirda ekotizimdagi muvozanatning buzilishi shu darajada og‘ir ko‘rinish olganki, buning natijasida insonlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini amalda ta’minlash dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 mlrd. kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. BMTning FAO bashoratiga ko‘ra, XXI asrning uchinchi o‘n yilligi o‘rtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlrd. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqirozlar va ijtimoiy halokatlarga sabab bo‘lishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030-yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi va qo‘shni davlatlarda suv iste’molining oshishi O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yo‘llaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash hisoblanadi. Hozirda mamlakatimizda 4,3 million gektar sug‘oriladigan yerning 500 ming gektarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan. 2026-yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning ko‘p yo‘qotilishidadir. Buning oqibatida qishloq xo‘jaligida har yili 4 mlrd 800 mln dollor kam daromad olinyapti. Shu sababdan, suvni tejashning yo‘llaridan biri kanallarni

betonlashtirishdir. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab so‘m ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamg‘arish masalasi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ekologik muammolarni ijobiy hal etish kishilik jamiyatini saqlab qolish, milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababdan, xalqaro hamjamiyat tomonidan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda ko‘rsatilishicha, inson tabiiy resurslarni o‘zlashtirganda biosferaning barqarorligi chegarasi saqlanishini shunday ta’minlashi kerakki, bunda inson hayoti va yashashi uchun tabiiy asos buzilmasligi lozim. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, hayotning sifat ko‘rsatkichi (odamlar sog‘lig‘i, ularning umr ko‘rish yoshi, daromadi, xavfsizligi); ekologik qulay muhit ko‘rsatkichi (atrof muhit holati, tabiiy resurslarni iste’mol qilish va foydalanish darajasi, ekotizim holati, bioxilmaxillik holati va h.k.); iqtisodiy ko‘rsatkichlar [2] kabi indikatorlar yordamida aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning lozim darajada amalda bo‘lishi barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, insonning ekologik huquqlarini himoya qilish maqsadida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda bir qator keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yurtboshimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [3]gi farmonida

> mamlakatimizda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish”

kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bu kabi chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ham belgilanib, unga ko‘ra, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foiziga yetkazish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqqa kengaytirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish vazifalari belgilab berildi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida insonning ekologik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarning belgilanishi diqqatga sazovordir. Ungi ko‘ra, 2024-yil yakuniga qadar xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida umumiy quvvati 2 700 MVt bo‘lgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish, 2030 yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “EVRO – 5” va undan yuqori standartlariga muvofiq bo‘lmagan avtomashinalar ekspluatatsiyasini bosqichma-bosqich cheklash, ekologiyaga avtomobillardan chiqindi gazlar ta’sirini kamaytirish maqsadida Toshkent shahrida oyning bir ish kuni davomida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasini amalga oshirish, Respublika bo‘ylab qo‘shimcha 1270 MVt quvvatli quyosh fotoelektr va 200 MVt quvvatli shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 mln tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, 112 ta yirik sanoat korxonalarining hududida “yashil belbog‘”larni barpo etish, yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatishni tashkil qilish kabi vazifalarning belgilanishi insonning ekologik huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Insonning ekologik huquqlarini

himoya qilish muammosiga yangilangan Konstitutsiyamizda ham jiddiy e’tibor berildi. Uning preambulasidayoq dunyo konstitutsiyalari preambulasi amaliyotida uchramaydigan qoida, ya’ni “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirish, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilish” tahriridagi norma o‘rnatildi. Ushbu norma millatimizning ona tabiatga bo‘lgan e’tiborining yorqin ifodasi, unga Asosiy qonunning preambulasidanoq konstitutsiyaviy maqom berilishidir.

Konstitutsiyaning bir qator normalarida

“har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi
49-modda

fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburligi
61-modda

mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerakligi
66-modda

davlat yoshlarning ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi”
79-modda

tahriridagi normalar [4]ning joy olganligi davlat tomonidan aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishidan dalolat beradi.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalarda tabiat obyektlariga nisbatan mulkchilik munosabatlarini aniq va mukammal, bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy tub islohotlar va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib belgilashga alohida ahamiyat berilgan. Aholi farovonligini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, insonning iqtisodiy huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim shartlaridan biri yer resurslariga nisbatan xususiy mulkchilikni o‘rnatish va huquqiy himoyasini ta’minlash hisoblanadi. Yer resurslariga nisbatan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim omillardan sanaladi.

Shu sababdan, Konstitutsiyada yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosiga umummilliy boylik sifatida davlat mulkchiligi o‘rnatilishi bilan bir qatorda tomorqa yerlari, aholiga xizmat ko‘rsatadigan binolar (kafe, restoran, sartaroshxona, kichik ishlab chiqarish binolari, magazinlar joylashgan yer uchastkalari) joylashgan yer uchastkalari, chet el elchixonalari joylashgan yer uchastkalariga xususiy mulkchilik-ning belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, Konstitutsiyaning 66-moddasida “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer oqilona foydalanish va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida xususiy mulk bo‘lishi mumkin” [4], mazmunidagi qoida o‘rnatilgan.

Mamlakatimizda davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “davlat fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash va atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi” [4] tahriridagi qoidalar mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va ekologik qonunlarda mustahkamlangan huquqiy normalardan kelib chiqib, fuqarolar quyidagi ekologik huquqlarga ega ekanligini ta’kidlash mumkin: atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat birlashmalari tuzish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan majlislar, mitinglar va boshqa ommaviy ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish, atrof tabiiy muhit masalalari bo‘yicha barcha davlat va jamoat tashkilotlariga ariza, shikoyat va takliflar bilan murojaat etish, tegishli davlat organlaridan atrof tabiiy muhitning holati va uni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar to‘g‘risida o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli axborot berishni talab qilish, atrof tabiiy muhitga va inson sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ekologik qarorlarni ma’muriy yoki sud tartibida bekor qilishni talab qilish, ekologik

huquqbuzarlikda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslarni va boshqa fuqarolarni javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani qo‘yish, ekologik huquqbuzarlik sodir etish oqibatida fuqarolar sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida sudga da’vo arizasini kiritish va x.z.

Inson huquqlari tizimida uning ekologik xavfsiz yashash huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson favqulodda yuz berishi mumkin bo‘lgan halokat va hodisalardan, tabiiy ofatlardan, sog‘lig‘ini va mulkini yo‘qotishdan va boshqa shunga o‘xshash xavf-xatarlardan himoyalangan bo‘lishi lozim. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash pirovard natijada insonning ekologik xavfsiz yashash huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqi uning tabiiy huquqi hisoblanadi. Ma’lumki, tabiiy huquqlar inson tug‘ilishi bilan vujudga keladi va uzviylik kasb etadi. Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqi mutloq huquq sifatida qaraladi. Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqini cheklab bo‘lmaydi, ya’ni qonun bilan insonni ekologik xavfsiz yashash huquqidan mahrum etish mumkin emas.

Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqining eng muhim kafolati har bir kishining o‘zi yashab turgan hududdagi ekologik xavfli obyektlarning hayot uchun bexatarligi, agar halokat yuz bersa, talafotning oldini olishga qaratilgan tadbirlar oldindan o‘ylab qo‘yilganligidan xabardor bo‘lishligidir. Aholi ekologik xavfli sanoat korxonalari, daryolar, suv omborlari, ko‘mir shaxtalari, gidrotexnika inshootlari va boshqa xavf-xatarli obyektlarning faoliyatidan doimo xabardor bo‘lishi zarur.

Insonning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tizimida ularning ekologik, ya’ni qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi muhim o‘rinni egallaydi. Qulay atrof tabiiy muhit deganda, tabiiy va tabiiy-antropogen obyektlarning barqaror hayotiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan muhit tushuniladi. Qulay atrof tabiiy muhitni sifati rasmiy ravishda tan olingan sanitariya-gigiyena va ekologik normativlarning kompleks talablariga javob beradigan, inson istiqomat qiladigan makon sifatida tavsiflash mumkin. Shunday ekan, insonning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi sanitariya-gigiyena va ekologik normativlarning sifat va miqdor ko‘rsatgichlariga aniq rioya qilinishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Aytilganlardan kelib chiqib, insonning ekologik huquqi deganda, har bir individning yashashi hamda faoliyat ko‘rsatishi uchun sifatli va toza, qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish, davlatdan, yuridik va jismoniy shaxslardan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishni talab qilish, huquqi buzilganda himoya qilishni so‘rab sudga murojaat etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasida fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi mustahkamlangan bo‘lib, uning kafolati sifatida atrof tabiiy muhitning ahvoli to‘g‘risida axborotni talab qilish va olish huquqi o‘rnatilgan. Ushbu qonunning 30-moddasida esa, atrof tabiiy muhitning holatiga jiddiy zarar yetkazadigan favqulodda hodisa va ofatlar yuz bergan taqdirda tegishli tashkilotlarning rahbarlari zudlik bilan aholini xabardor qilishi lozimligi belgilangan [5].

O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiya xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolarning radiatsiyaviy holat va radiatsiya xavfsizligi ta’minlash to‘g‘risida axborot olish huquqi [6], “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shartligi [7] mustahkamlangan.

Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqini davlat tomonidan himoya qilish ma’muriy va sud tartibida amalga oshiriladi. Qonunga ko‘ra, tegishli organlarning kollegial va yakka tartibda chiqargan qarorlari ustidan fuqarolar ma’muriy tartibda shikoyat berish huquqiga egadirlar. Qonun murojaatchiga shikoyatni yuboruvchi organni o‘zi tanlash huquqini beradi. U sudga yoki qaror qabul qilgan organning yuqori turuvchi organiga murojaat qilishi mumkin. Shuningdek,

agar fuqaro davlat organining shikoyatni ko‘rib chiqishidan norozi bo‘lsa, bevosita sudga murojaat qilish huquqiga ham ega.

Ekologik nojo‘ya hatti-harakat tufayli fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talablariga asoslanadi. Unga binoan, ekologik huquqbuzarlik sodir etish oqibatida fuqarolarning sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zararni qoplashning umumiy tamoyillari sifatida zarar yetkazuvchiga yuridik javobgarlikni boshqa turlari qo‘llangan yoki qo‘llanmaganligidan qat’iy nazar yetkazilgan zararni qoplash majburiyatining yuklatilishi, yetkazilgan zararning to‘liq qoplanishi, yuridik shaxslar va fuqarolarning xizmat faoliyatini amalga oshirishda atrof tabiiy muhitga va uning oqibati o‘laroq fuqarolarning sog‘lig‘i va mulkiga yetkazgan zarar uchun javobgarligi, hamkorlikda ekologik zarar yetkazgan shaxslarning solidar javobgarligi, ekogen zararni sud tartibida, nizosiz va ixtiyoriy ravishda qoplanishi belgilangan.

Insonning sog‘lig‘i va hayotiga texnogen ekologik favqulodda hodisa tufayli yetkazilgan zarar quyidagi usullar yordamida qoplanadi: a) xodim kasal bo‘lib vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa, uning sog‘ayishi muddatiga kasallik varaqasiga ko‘ra ish haqini to‘lash; b) nogironlik maqomi berilib, ijtimoiy ta’minot mablag‘lari to‘lash; i) jabrlanganlarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish, imtiyoz va to‘lov (kompensatsiya)lar berish; g) sud tartibida boshqa zararlarni undirib olish.

Insonning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning qiymatiga kasallikni davolash va sog‘lig‘ini tiklash uchun qilingan sarf xarajatlar, kasalga qarash uchun ketgan xarajatlar, jabrlanuvchining kasb mahoratini yo‘qotganligi natijasida kelib chiqqan yo‘qotishlar, yashash joyi va hayot tarzini o‘zgartirganlik uchun qilingan xarajatlar, ma’naviy zarar kiradi. Insonga ekologik xavf-xatar natijasida yetkazilgan zararni moddiy qoplashdan tashqari tibbiy yordam ko‘rsatish, uy-joy olish, imtiyozli mehnat qilish, ijtimoiy-maishiy va transport xizmati bilan ta’minlash, sanatoriya-kurort muassasalarida davolash ham belgilanishi mumkin.

Aytilganlardan kelib chiqib, insonning ekologik huquqlarini himoya qilishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni bildirish o‘rinlidir: birinchidan, mamlakatimizda quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarishiga chet el investitsiyalarini yanada kengroq jalb qilish, fuqarolarning ulardan foydalanishga o‘tishini rag‘batlantiruvchi chora va imtiyozlarni yanada kengaytirish; ikkinchidan, davlat muassasasi, korxona va tashkilotlarida besh kunlik ish haftasiga o‘tib avtomobillardan foydalanishni oyiga bir kun emas, balki haftasiga bir kun (har shanba kuni) cheklash; uchinchidan, aholini elektromobillar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish, buning uchun ularga imtiyozlar doirasini kengaytirish; to‘rtinchidan, atmosferaga o‘ta zararli ta’sir ko‘rsatuvchi yoqilg‘i turlaridan foydalanishdan butunlay voz kechish; beshinchidan, aholining iste’moliga yaroqli suv resurslarini tejashni ta’minlashga qaratilgan qonunchilik mexanizmini kuchaytirish; oltinchidan, atrof tabiiy muhitni kompleks muhofaza qilishni ta’minlashga xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya kodeksini qabul qilish.

Bundan tashqari, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning eng samarali vositalaridan biri fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirishdir. Har bir ota-ona farzandlarini tabiatni sevish, ardoqlash, yerga, tuproqqa mehr qo‘yish, o‘simligu-jonivorlarni ardoqlashga o‘rgatishi lozim. Oila, bolalar bog‘chasi, maktabdan boshlab ekologik ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilishi kerak. Toki bolalar go‘dakligidanoq tabiatga nisbatan bemehrlik og‘ir oqibatlarga olib kelishini tushunishi zarur.

> “Tabiatga mehri kuchli bo‘lgan insonning o‘z xalqiga, Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo‘ladi. Qalbida mehr-shafqat, rahmdillik va vatanparvarlik singari yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan insonlar tabiatdagi har bir mavjudod va hodisaga oqilona munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. U daraxt shoxini sindirmaydi, axlat tashlab suvni iflos qilmaydi, havoning bulg‘anishiga yo‘l qo‘ymaydi, yam-yashil maysalarni payhon qilmaydi, aksincha bog‘lar yaratadi, obodonchilik ishlari bilan shug‘ullanadi, mehnati, aql-idroki va tafakkurini ona tabiatni muhofaza qilishga bag‘ishlaydi. Bularning barchasi pirovardida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga va insonning ekologik huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье исследуются проблемы обеспечения экологической безопасности, ее влияние на экологических прав человека, роль конституционных норм в обеспечении экологической стабильности и вопросы совершенствование экологических прав человека.

Ключевые слова: экология, экологическая безопасность, национальная безопасность, экологическая стабильность, экологическое право, экологическое законодательство, окружающая природная среда, природные объекты, стабильное развитие.

Abstract. The article searches the matters of ecological safety. Its influence on national security, the role of ecological legislation and providing ecological firmness is also given in the article.

Key words: ecology, ecological safety, national security, ecological legisla-tion, environment, natural objects, and steady development.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘tarilamiz. 1-tom. -T.: O‘zbekiston, 2017, 569-570-betlar;
2. Наше общее будущее. -М.: Прогресс, 1989;
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/ 60/0082;
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993, 1-son, 38-modda;
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2000, 7-8-son, 212-modda;
7. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2022 y., 03/22/790/ 0751-son.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISNING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATI

Abdumannob RAXIMOV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil
izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni, qonun ijodkorligi faoliyati, uning ahamiyati, parlament qonun ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Qonunchilik palatasi, Senat, Konstitutsiya, qonun, qonun ijodkorligi, qonunchilik jarayoni, qonunchilik funksiyasi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz.

Shavkat Mirziyoyev

Parlamentning mohiyati va roli uning funksiya va vakolatlarida namoyon bo‘ladi. Lug‘aviy (etimologik) jihatdan “Parlamentning vakolati” - bu davlat organining asosiy funksiyalarini ochib beradigan vakolatlari doirasidir. Professor X.T.Odilqoriyev parlamentning asosiy vazifasi sifatida Oliy Majlisning qonun chiqaruvchi funksiyasini ajratib ko‘rsatadi [1]. I.T.Tulteyev va A.X.Sattorovlar esa “qonun chiqaruvchi funksiya o‘z ahamiyati va mazmuniga ko‘ra parlamentning asosiy va eng keng qamrovli vazifasidir” - deb ta’kidlaydilar [2]. Parlamentning qonun chiqaruvchi funksiyasi Oliy Majlis palatalari tomonidan davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalariga oid qonunlarni ko‘rib chiqish va qabul qilishdan iborat. Qonun chiqarish funksiyasini amalga oshirishda Oliy Majlisdan tashqari, mamlakat Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari ham – har biri Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida ishtirok etadilar.

Qonun chiqarish funksiyani amalga oshirishning mahsuli parlament tomonidan qabul qilingan qonunlardir [3]. Qonunchilikda mamlakat Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonun va oddiy qonunlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi nomidan imzolangan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to‘g‘risidagi kabi qonun turlari farqlanadi.

Parlament o‘zining qonun chiqaruvchi funksiyasi orqali davlat organlari tizimini tashkil qiladi yoki ta’sis etadi, ularning shakllanishi va faoliyati tartibini belgilaydi [4]. Bundan tashqari, bu parlamentning eng muhim vazifalaridan biri, chunki qonun chiqaruvchi organ o‘z faoliyatining ko‘p qismini qonun loyihalarini tayyorlash, muhokama etish va qabul qilishga bag‘ishlaydi [5]. Ayrim olimlar qonun chiqarish funksiyasini parlamentning titul (asl) yoki asosiy funksiyasi deb atashadi [6]. Qozog‘istonlik ekspertlarning ta’kidlashicha, qonun chiqarish funksiyasi parlamentning qonun ijodkorligi sohasidagi qat’iy vakolatidan kelib chiqadi, uning chegaralari faoliyat sohalari ro‘yxati bilan belgilanadi [7]. Ularning qayd etishicha, bu konstitutsiyada mustahkamlangan asosiy funksiya - qonunlar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishdir [8]. Demak, parlamentning qonun chiqarish funksiyasini amalga oshirish, odatda, qonun ijodkorligi jarayoni deb ataladigan murakkab va batafsil tartib-qoidalar orqali amalga oshiriladi.

Aksariyat xorijiy parlamentlarda qonun ijodkorligi jarayoni qonunchilik taklifi (qonunchilik tashabbusi), shuningdek, qonunlarning o‘zini ko‘rib chiqish va qabul qilish tartibini qamrab oladi [9]. Odatda, bu tartib-taomillar konstitutsiyalar, qonunlar va parlament palatalarining reglamentlari bilan batafsil tartibga solinadi. Italiya Konstitutsiyasining 70-moddasida “Qonun chiqaruvchi funksiya ikkala palata tomonidan birgalikda amalga oshiriladi” deb, belgilangan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, parlament funksiyasi deganda, odatda, uning faoliyatining asosiy yo‘nalishi tushuniladi. Ular parlament

vakolatlarini amalga oshirish orqali ochiladi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda “parlament funksiyasi”, “parlament hokimiyati”, “parlament vakolati” tushunchalarini ba’zan chalkashtirib yuborish holatlari uchrab turadi [10]. Shu bilan birga, parlamentning funksiyalari ham butun parlamentning, ham uning palatalarining vakolatlarida (ikki palatali parlamentda) namoyon bo‘ladi.

Parlament funksiyalari ichida qonun chiqarish faoliyat hajmi bo‘yicha eng katta qismni egallaydi va shu bois u eng ko‘p ifodalangan qonun chiqaruvchi funksiyadir. Bu funksiyani mustaqil amalga oshirishning kafolati uning parlament - Oliy Majlis tomonidan amalga oshirilishining mustaqilligidir – u hech kimning aralashuvisiz amalga oshiradi, parlament tomonidan uning bajarilishini hech kim nazorat qilishga haqli emas. Parlament tomonidan ushbu funksiyani amalga oshirish doirasi faqat uning yurisdiksiya doirasi bilan cheklangan, ya’ni, parlament tomonidan qonuniy tartibga solinishi mumkin bo‘lgan bir qator ijtimoiy munosabatlarning mantiqiy tizimidir.

Shu bilan birga, bu mustaqillik mutlaq emas - uning ko‘lami Konstitutsiya va qonunlar bilan, shuningdek, “tejamkorlik va muvozanat mexanizmi” (parlament doirasida qonunlarni tasdiqlash va muvofiqlashtirish mexanizmi, davlat rahbarining veto huquqi, Konstitutsiyaviy sud nazorati va boshqa harakatlar bilan belgilanadi). Biroq, na davlat rahbari, na Konstitutsiyaviy sud parlament palatalarining qonun ijodkorligi faoliyatiga bevosita aralashish huquqiga ega emas. Ularning qonun ijodkorligi jarayoniga ta’sir qilish tartiblari va chegaralari konstitutsiyaviy tarzda qat’iy tartibga solingan.

Demak, parlamentning qonun chiqarish funksiyasi mamlakat Oliy vakillik organi tomonidan davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, qonun hujjatlarini yaratish, o‘zgartirish yoki bekor qilishdan iborat. Qonun chiqarish funksiyasi so‘zining tom ma’nosida parlamentning faqat o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan qonun chiqaruvchi vakolatlarini qamrab olgan faoliyatini anglatadi.

Bizning ijtimoiy so‘rovimiz asosida, respondentlarga “Oliy Majlis ikki palatali bo‘lganidan keyin, u qanchalik samara berdi?” - degan savolimizga javoblar shunday bo‘ldi:

a) qabul qilinayotgan qonunlarning sifati yaxshilandi - 39,7 foiz;

b) qonunlarni qabul qilish sekinlashdi - 27,9 foiz;

v) qonunlarning sifati deyarli o‘zgarmadi - 11,8 foiz;

g) javob berishga qiynalaman - 12,9 foiz;

d) boshqa javob - 0,5 foiz.

“Parlamentning qonun loyihalarini tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilish tartibini bilasizmi?” - degan savolga:

a) ha, qonun ijodkorligi bosqichlarini bilaman - 46,2 foiz;

b) ushbu jarayon bilan qisman tanishman - 22,5 foiz;

v) qonunchilik jarayoni bosqichlari borasida ma’lumotga ega emasman - 24,1 foiz;

g) javob berishga qiynalaman deya javob qaytarganlar - 3,7 foiz.

Yurisprudensiyada davlat organining vakolati deganda, yuridik adabiyotda mazmuni bo‘yicha hanuz yakdillik mavjud bo‘lmagan murakkab huquqiy kategoriya tushuniladi. Kompetensiya “muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning davlat organlari tizimidagi o‘rnini ifoda etuvchi qonun bilan belgilangan vakolatlari, huquq va majburiyatlari yig‘indisi”, deb talqin etiladi [11]. Shu bilan birga, parlamentning vakolatiga ham subyekt (umumiy) hamda parlament palatasining muayyan masala bo‘yicha qaror qabul qilish mutlaq huquqini (masalan, faqat Oliy Majlis Senatining amnistiya aktini qabul qilish huquqi, Oliy Majlisning har ikkala palatasi parlament tekshiruvi o‘tkazish huquqiga ega) nazarda tutuvchi maxsus vakolatlar kiradi.

Qonunchilik faoliyati qat’iy tartibga solinadigan jarayon bo‘lib, palatalar tomonidan amalga oshiriladigan va qonunlar yaratishga qaratilgan muayyan tartib-qoidalar (ketma-ket bosqichlarni tashkil etuvchi) tizimini ifodalaydi. Mamlakat yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qoidalariga ko‘ra, Oliy Majlisning ikkala palatasi ham qonun ijodkorligi jarayoniga va navbatma-navbat kirishadi. Demak, Qonunchilik palatasi qonunlarni qabul qilish, Senat esa ma’qullash huquqiga ega. Qonun ijodkorligi funksiyasini amalga oshirishning bunday ketma-ketligi qonun ijodkorligi jarayonini ma’lum darajada murakkablashtiradi hamda sekinlashtiradi, lekin umuman olganda, qonun ijodkorligi jarayoni bundan yutadi, chunki u qonun ijodkorligi ishini tizimli va puxta o‘ylangan holda amalga oshirishga, qonunchilikning maqbul variantini izlashga yordam beradi. qonunchilikni tartibga solish va murosaga kelish, milliy va mintaqaviy manfaatlarni muvofiqlashtirish uchun imkoniyat

yaratadi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 99-moddasiga binoan, Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan oltmish kun ichida ko‘rib chiqiladi va ma’qullangan taqdirda, imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kundan kechiktirmay yuboriladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni oltmish kun ichida imzolaydi va e’lon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e’tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

Oliy Majlisning qonun chiqarish funksiyasi zamonaviy sharoitda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida parlamentning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va rolini kuchaytirish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, shuningdek, qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan yaxshilash vazifalari belgilab berilgan. Qabul qilingan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining borishiga ta’sirini oshirishga qaratilgan maqsadlar belgilangan [12].

Asosiy qonunning 93-moddasiga muvofiq, Oliy Majlisning palatalari birgalikda quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi, ularning amalga oshirilishi tegishli qonun qabul qilishdan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;
- xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish va uni o‘tkazish sanasini tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimi va vakolatlarini belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqarishi to‘g‘risidagi qarorlarni tasdiqlash;
- bojxona, valuta va kredit masalalarini qonunchilik bilan tartibga solish;
- mamlakat Davlat budjetini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasi davlat

qarzining eng yuqori miqdorini belgilash;
- - soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi, chegaralarini o‘zgartirish masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;
- tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;
- davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish.

Bularni, shuningdek, respublika qonunlarida mustahkamlangan boshqa vakolatlarni amalga oshirish parlamentning qonun chiqarish funksiyasini bevosita amalga oshirish hisoblanadi. Professor X.T.Odilqoriyev qayd etganidek: “qonunchilik funksiyasining mohiyati shundaki, bunda davlat (hukmron elita) o‘z irodasiga rasmiy majburiy siyosiy tus beradi”, “qonun ijodkorlik (qonunni yaratish) jarayoni – davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig‘indisi bo‘lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi” [13]. Bu yerda biz professor S.A.Avakyanning fikrini qo‘llab-quvvatlaymiz. “Parlament qonun chiqarish funksiyasini bajaradi, ya’ni, xalq irodasini to‘la ifodalovchi va Konstitutsiyadan keyin boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunlarni qabul qiladi [14].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamentida (2024 yil 20 martdagi tahririda) parlament quyi palatasiga kiritilgan qonun loyihasining muhokamasi va qabul qilinishi butun jarayoni tartibga solingan. Xususan,

- qonun loyihasining Qonunchilik palatasi qo‘mitalaridagi muhokamasi (Reglamentning 44-moddasi);

- siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan qonun loyihalarining ko‘rib chiqilishi (Reglamentning 60 - 61-moddalari);

- palata majlislarida qonun loyihasi muhokamasi (Reglamentning 64, 65, 66, 67-moddalari);

- Qonun loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritish va ko‘rib chiqish (Reglamentning 12 - 13 boblari, 124 - 136-moddalari, 137 - 1521-moddalari);

- Davlat budjeti loyihasini qabul qilish (Reglamentning 172 - 176-moddalari) va h.k [15].

Demak, qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kelib tushganidan so‘ng uning ustida zudlik bilan ishlar boshlanadi. Quyi palata Kengashi huzurida palata devonining uch nafar xodimidan iborat kiritilgan qonun loyihalarini ko‘rib chiqishni tashkil etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi guruh faoliyat yuritadi. U qonun loyihasini ro‘yxatdan o‘tkazish, bu haqda deputatlarni xabardor qilish va loyihaning butun o‘tishi jarayonini kuzatishga mas’uldir.

Qonun loyihasini parlament palatasining majlislarida muhokama qilish uch o‘qishda amalga oshiriladi. Qoidaga ko‘ra, dunyoning aksariyat mamlakatlari parlamentlarida qonun loyihalari muhokamasi uch o‘qishda o‘tkaziladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyihasi deputatlar qaroriga ko‘ra bir, ikki yoki uch o‘qishdan o‘tkazilishi mumkin. Qonun loyihasini o‘qishda yoki umuman qabul qilish ovoz berish yo‘li bilan hal qilinadi. Ayrim parlamentlarda birinchi o‘qish qonun loyihasining (konsepsiyasi) umumiy tamoyillari to‘g‘risidagi munozaradan iborat. Taklif etilayotgan qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqishda, mazkur qonun loyihasi qabul qilinishiga qanchalik zarurat bor, u qonunchilik texnikasi talablariga javob beradimi, degan savollar atrofida bo‘ladi.

Qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqishda uning konsepsiyasi muhokama qilinadi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyati baholanadi. Parlamentda birinchi o‘qishda muhokama qonun loyihasini taqdim etgan qonunchilik tashabbusi subyektining ma’ruzasi bilan boshlanadi.

Keyin parlament Qonunchilik palatasi mas’ul qo‘mitasi raisining qo‘shimcha ma’ruzasi taqdim etiladi. Ma’ruzalarda qonun loyihasining ahamiyati va uni qabul qilish zarurati asoslari bayon etilgan bo‘lib, ma’ruza yakuniy so‘z bilan tugallanadi, unda muhokama davomida bildirilgan taklif va mulohazalar tahlil qilinadi. So‘ngra ma’ruzachilar qonun loyihasining mazmun-mohiyati yuzasidan deputatlarning savollariga javob beradi, so‘ngra deputatlar va muhokamada ishtirok etish uchun taklif etilgan boshqa shaxslarning taklif va mulohazalari tinglanadi.

Muqobil qonun loyihalari kiritilgan taqdirda parlament, odatda, ularni parlamentga kiritilgan tartibda bir majlisda ko‘rib chiqadi. Birinchi o‘qishda ovoz berish natijasida quyidagi qarorlar

qabul qilinishi mumkin: “qonun loyihasini rad etish”, “qonun loyihasini birinchi o‘qishda qabul qilish va taklif hamda mulohazalarni hisobga olgan holda u ustida ishlashni davom ettirish”, shuningdek “qonunni qabul qilish”.

Ikkinchi o‘qish. Qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilingandan keyin o‘n kun muddatda mas’ul qo‘mitaga yuboriladi. Birinchi o‘qishda qabul qilingan qonun loyihasiga kiritilgan o‘zgartishlar moddalarning tahririni mukammallashtirish yoki qonun loyihasini muayyan moddalar bilan to‘ldirish yoxud ba’zi so‘zlarni, bandlarni, qismlarni, moddalarni chiqarib tashlash to‘g‘risidagi qonun loyihasiga o‘zgartishlarni asoslash shaklida taklif mas’ul qo‘mitaga kiritiladi. Biroq o‘zgartirishlar parlament a’zolari tomonidan avval birinchi o‘qishda ma’qullangan qonun loyiha¬sining umumiy konsepsiyasini buzishi, unga zid bo‘lishi mumkin emas.

Yalpi majlisda ovoz berish yakunlari bo‘yicha qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga olib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi ham mumkin. Shu munosabat bilan birinchi o‘qishda qabul qilingan qonun loyihasining matni matbuotda majburiy e’lon qilinishi kerak. Qo‘mita, shuningdek, ba’zi tuzatishlarni qabul qilish uchun tavsiya qiladi, boshqalarini rad etish uchun tavsiya qilishi mumkin. Tuzatishlar kiritish muddati tugagach, mas’ul qo‘mita kiritilgan tuzatishlarni o‘rganadi va umumlashtiradi hamda ularning jadvalini tuzadi. Jadvalda qonun loyihasining matni, o‘zgartirish muallifi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, qo‘shimchaning mazmuni, taklif etilayotgan tuzatishni hisobga olgan holda qonun loyihasining yangi tahriri, shuningdek, qo‘mita tomonidan alohida tuzatishlar kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishning qisqacha asoslari keltiriladi. Qonun loyihasining huquqiy ekspertizasi - palataning o‘zida ham, masalan, mamlakat Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutida ham o‘tkazilishi mumkin.

Shundan so‘ng mas’ul qo‘mita qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlaydi va unda moddama-modda o‘zgartishlar kiritadi. Ikkinchi o‘qish qonun loyihasini mohiyati bo‘yicha muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. Qoidaga ko‘ra, qonun loyihasi ustida ishlagan qo‘mita hisoboti bo‘yicha ikkinchi o‘qish o‘tkaziladi. Bunday hisobot juda muhimdir. Uning matni sessiya muhokamasidan oldin deputatlar tomonidan o‘rganiladi va shunga ko‘ra, unda keltirilgan baho va xulosalar ushbu loyiha bo‘yicha haligacha o‘z fikrini shakllantirmagan deputatlarning pozitsiyasiga ta’sir qilishi mumkin.

Ikkinchi o‘qish bosqichida endilikda birinchi o‘qishda qabul qilingan qonun loyihasining asoslarini o‘zgartirish mumkin emas. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, loyiha muhokamasi mas’ul qo‘mita ma’ruzasi asosida o‘tkaziladi va agar deputatlarning qo‘mita fikriga e’tirozlari bo‘lmasa, mas’ul qo‘mita tomonidan tavsiya etilgan tuzatishlarni qabul qilish to‘g‘risida masala to‘liq ovozga qo‘yiladi. Agar deputatlar yoki majlisga taklif etilganlarning matnga qo‘mita tomonidan tavsiya etilgan tuzatishlar kiritishga e’tirozlari bo‘lsa, avvalo, umuman bahsga sabab bo‘lmagan tuzatishlar bo‘yicha, so‘ngra e’tiroz bildirilgan har bir tuzatish bo‘yicha alohida ovozga qo‘yiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada ushbu bosqichda qonun loyihasini ko‘rib chiqish olti oyga kechiktirilishi mumkin.

Bu kabi vazifalar maslahat demokratiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Aynan ikkinchi o‘qish doirasida qonunlarni ishlab chiqishda murosaga (konsensusga) erishiladi. Liberal demokratiyaning mohiyati quyidagilardan iborat:

- qonun loyihasi muhokama qilinayotganda hech bir subyektning fikri va pozitsiyasi e’tibordan chetda qolmasligi yoki asoslarsiz rad etilmasligi kerak;
- munozara ishtirokchilari turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmatga erishishga hissa qo‘shishlari kerak;
- deputatlar tenglik asosida mavjud manfaatlar, muammolar va talablarni hisobga olishlari shart [16].

Shu nuqtai nazardan, parlament qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining fikrini hisobga olgan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasiga o‘zgartirishlar kiritishning maxsus tartibini belgilagan Belarus tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi o‘qishdan so‘ng qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqishda qonun loyihasi matniga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan bog‘liq holda zarur bo‘lgan ichki qarama-qarshiliklarni va tahririy tuzatishlarni bartaraf etish uchun mas’ul qo‘mitaga yuboriladi. Ushbu ishni tugatgandan so‘ng, mas’ul qo‘mita qonun loyihasini qonun sifatida qabul qilish uchun parlament (quyi palatasi) majlisiga ovoz berish uchun yuboradi.

Qonun loyihasi uchinchi o‘qishda ko‘rib chiqilayotganda qonun loyihasining umumiy muhokamasiga yoki uning alohida boblarining muhokamasiga qaytish bilan bir qatorda qonun

loyihasi matniga bo‘limlar yoki moddalarga o‘zgartishlar kiritishga (faqat tahrirga oid tuzatishlar bundan mustasno) yo‘l qo‘yilmaydi. Agar qonun loyihasi uchinchi o‘qishda qabul qilinmasa, u rad etilgan hisoblanadi, u parlament qarori bilan rasmiylashtiriladi va bunday qonun loyihasi keyinchalik ko‘rib chiqilishi shart emas. Qonunlar Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida ovoz berish orqali qabul qilinadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Konstitutsiyaga muvofiq (99-modda) Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar o‘n kundan kechiktirilmay Senatga ma’qullash uchun yuboriladi. Ular Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach, rasmiy matbuotda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Demak, Oliy Majlis palatalarining qonun ijodkorligi faoliyati tahlili qonun ijodkorligi jarayoni izchillashgani va faollashganidan dalolat beradi. Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi, uning quyi palatasi ishining professionallashtirilishi qonun ijodkorligi faoliyati sifatini oshirish imkonini bergan bo‘lsa-da, qabul qilinayotgan qonunlar soni ortib borayotgan bir sharoitda ba’zi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, odatda qabul qilingan qonunlarning 15 foizga yaqinida jiddiy kamchilik va xatolar mavjud [17]. Qonun ijodkorligi faoliyatidagi bunday xato, qarama-qarshilik, ziddiyat va kamchiliklarni bartaraf etish ilmiy asoslangan va mutanosib qonunlar qabul qilinishiga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda qonunchilik xatosi deganda qonunning qabul qilinishi va amalga oshirilishi adolatsizlik va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradigan salbiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy yoki ijtimoiy oqibatlarga olib keladigan, shaxs huquqlarining kafolatlari darajasini pasaytiradigan, manfaatlar, huquqni muhofaza qilish faoliyati samaradorligiga, milliy xavfsizlik asoslariga putur yetkazadigan, demokratik jamiyat va boshqaruv tizimini barpo etish tamoyillariga zarar yetkazadigan bo‘lishi tushuniladi [18].

Binobarin, qonun ijodkorligi faoliyati subyektlari qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etishi uchun kasbiy bilim, o‘quv va malakaga ega bo‘lishi kerak. Qonun ijodkorligi sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muammosini hal qilish uchun huquqshunoslik oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlariga “Norma ijodkorligi nazariyasi va amaliyoti” hamda “Norma ijodkorligi texnologiyasi” muammolarini o‘rganuvchi o‘quv fanini kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mazkur o‘quv fani mutaxassislarni nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Аннотация. В статье рассматривается роль Олий Мажлиса Республики Узбекистан с системе государственной власти, законотворческой деятельности, ее значения, вопросы дальнейшего совершенствования парламентской законотворческой деятельности.

Ключевые слова: Олий Мажлис, Президент, Кабинет Министров, Законодетельная палата, Сенат, Конституция, закон, правотворество, законодательный процесс, законодательная функция.

Abstract. The article discusses the role of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in the system of state power, law-making activity, its importance, issues of further improvement of parliamentary law-making activity.

Key words: Oliy Majlis, President, Cabinet of Ministers, Legislative Chamber, Senate, Constitution, law, law-making, legislative process, legislative function.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Одилкориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. – Т., 2022, 140 – бет.
2. Тультеев И.Т. и др. Законодательная деятельность Олий Мажлиса Республики Узбекистан: Учебное пособие. – Т.: «Niso Poligraf», 2023. – С. 3.
3. Мухамеджанов А.З. Взаимодействие парламента и правительства в условиях конституционных преобразований Узбекистана // Право и политика. 2014, № 9 (177). – С. 1311.

4. Керимов А. А. Парламентаризм как фактор легитимности политической власти в современной России: Монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. - С. 169.

5. Войтович Е.А. Конституционно-правовой статус высшего законодательного органа Австралийского союза: Дисс. … канд. юрид. наук – М., 2021. - С. 119.

6. Васильева Т.А. Законодательные полномочия парламентов в Европейских странах: современные тенденции // Труды Института государства и права Российской академии наук. 2012. № 1. - С. 138-156; Чудаков М.Ф. Конституционное (государственное) право зарубежных стран: Учеб. пособие. Минск, 2001. С. 361; Шаповал В.Н. Сравнительное конституционное право. Киев, 2007. С. 247.

7. Жанузакова Л.Т., Нургазинов Б.К., Караев А.А. Законодательная функция парламента: некоторые вопросы предметной компетенции // Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. 2020, № 4 (62). – С. 27 – 28.

8. Мишин С. Функции парламента – определяющий фактор ценности высшего представительного органа государственной власти // закон и жизнь. 2010, № 10. – С. 25.

9. Pasan Jayasinghe, Peter Reid, Asanga Welikala. Parliament: Law, History and Politics. Publisher: Centre for Policy Alternatives (CPA), Colombo, Sri Lanka. 2019. – P. 16.

10. Парламентское право России: монография. Под ред. Т.Я. Хабриевой. – М., Изд. Государственной Думы, 2013. – С. 56.

11. Безруков А.В. Парламентское право и парламентские процедуры в России: учебное пособие. – М., 2017. – С.22.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022—2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 03.01.2024 й., 06/24/221/0003-сон.

13. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т. Одилқориев, И.Т. Тультеев ва бошқ. Проф. Х.Т. Одилқориев тахрири остида. – Т.: «Шарқ», 2009. – Б. 231, 237 – 238.

14. Авакьян С.А. Федеральное Собрание — парламент России. — М.: Российский Юридический Издательский Дом, 1999. - С. 32.

15. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг регламенти тўғрисида"ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 9-10-сон, 136-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 153-модда; 29-30-сон, 298-модда; 2008 й., 52-сон, 510-модда; 2009 й., 15-сон, 179-модда; 2011 й., 16-сон, 160-модда; 2013 й., 16-сон, 215-модда; 2014 й., 16-сон, 177-модда, 20-сон, 222-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда; 2016 й., 39-сон, 457-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда, 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/459/0536-сон, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон, 09.01.2019 й., 03/19/512/2435-сон, 06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон; 11.05.2019 й., 03/19/536/3114-сон, 23.05.2019 й., 03/19/540/3167-сон, 28.08.2019 й., 03/19/557/3657-сон, 05.09.2019 й., 03/19/563/3685-сон; 10.12.2019 й., 03/19/590/4129-сон; 10.08.2020 й., 03/20/631/1153-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 27.10.2022 й., 03/22/796/0966-сон; 19.12.2023 й., 03/23/883/0949-сон; 19.02.2024 й., 03/24/909/0133-сон

16. A systemic Approach to Deliberative Democracy. In Deliberative Systems. Deliberative Democracy at the Large Scale. ed. John Parkinson, and Jane Mansbridge, 1–26. Cambridge: Cambridge University Press. 2012. - P.11.

17. Қаранг: Лазарев В.В. Роль Конституционного Суда Российской Федерации в установлении и преодолении ошибок законодателя // Правотворческие ошибки: понятие, виды, практика и техника устранения в постсоветских государствах: Материалы Международного научно-практического круглого стола / Под ред. В.М. Баранова, И.М. Мацкевича. - М.: Проспект, 2009. – С. 139.

18. Москалькова Т.Н. Законотворческие ошибки: понятие, виды и пути противодействия // Правотворческие ошибки: понятие, виды, практика и техника устранения в постсоветских государствах: Материалы Международного научно-практического круглого стола / Под ред. В.М. Баранова, И.М. Мацкевича. - М.: Проспект, 2009. – С.18.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA SHAROITIDA QONUN IJODKORLIGI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Muxtabar XUSANOVA
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a’zosi,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqola yangilangan Konstitutsiya sharoitida qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning istiqbollarini tahlil qiladi. Konstitutsiyaning yangi tahriri qonun ijodkorligini samarali tashkil etish va davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda asosiy huquqiy va institutsional asoslarini yaratadi. Maqolada parlamentning qonun ijodkorligi faoliyati tahlil etilib, uni takomillashtirishning vazifalari bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, qonun ijodkorligi, raqamli transformatsiya qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlar, huquqiy mexanizmlar, innovatsion omil, milliy tajriba, xalqaro tajriba.

Ta’kidlash joiz, har qanday islohot konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayansagina, ko‘zlangan strategik maqsad va samarali natijalarga erishiladi. Zero, yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamiyat va davlat oldida turgan Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Undagi normalarni birma-bir ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas’uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga qaratilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Parlamentarizmning nechog‘li rivojiga qarab – demokratik taraqqiyot, fuqarolar huquq va erkinligiga rioya qilinishi hamda jamiyat ravnaqi darajasi belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan parlamentning muhim funksiyalaridan bo‘lgan - qonun ijodkorligi jarayoni ham uzviy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Tahlillar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ellikka yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qonun ijodkorligi jarayoniga oid munosabatlarning turli jihatlarini tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda qabul qilinganlari xalq irodasini ifoda etishning yangi demokratik mexanizmlarini singdirgani bilan ahamiyatlidir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi [1] hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi [2] asosida zamon tendensiyalari va barqaror taraqqiyot vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat va jamiyat tizimida parlamentning rolini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi, qonun ijodkorligi jarayonini tashkil etishning demokratik mexanizmlari joriy etildi. Xalqchil va hayotiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan, jamiyat hayotining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishning barcha bosqichlari milliy qonunchilik tajribasi hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or amaliyoti tahlili asosida rivojlantirilib borildi.

Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning demokratik shakllarini joriy etish, qonun loyihalarini keng jamoatchilik vakillari muhokamalaridan o‘tkazish, shuningdek, xalqaro shartnoma va reytinglarga mosligini o‘rganishga ustuvor ahamiyat berildi. Bu o‘z navbatida natijasini ko‘rsatib oxirgi 6 yil ichida O‘zbekiston “Qonun ustuvorligi” (Rule of Law) indeksi bo‘yicha 5 pog‘onaga hamda “Butunjahon boshqaruv ko‘rsatkichlari” (WGI) indeksida 24 pog‘onaga yuqoriladi [3].

Mazkur sohani rivojlantirishga oid “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi hamda yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi kabi muhim Qonunlar qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar asosida qonun ijodkorligi amaliyotiga yangi tahrirdagi qonun hujjatini qabul qilish o‘rniga yangi qonun hujjatini qabul qilish va bir vaqtning o‘zida amaldagi qonun hujjatini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish tartibi joriy etildi. Bu, o‘z navbatida, huquqni qo‘llashda turli chalkashliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etilishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalarga mosligini o‘rganish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu esa, davlatimizning xalqaro maydondagi xalqaro huquqlar va majburiyatlarining to‘laqonli bajarilishiga, yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirilishiga, umuman mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, parlamentning qonun ijodkorligi sohasidagi ishini butunlay yangicha tashkil etish, uni yangi mazmun bilan yanada boyitish zarurati tug‘ilmoqda.

Xususan, qonun ijodkorligi sohasida innovatsion omilni keng joriy etish parlamentning muhim vazifalaridan bo‘lishiga e’tibor qaratilishi masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasining 79-bandida ham Parlament va uning organlari ish jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish, shu jumladan ular tomonidan qarorlar qabul qilish va e’lon qilish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish vazifasi belgilangan [4].

Shu nuqtai nazardan, bugungi kun talablarini inobatga olgan holda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda faoliyatning innovatsion usullarini qonun ijodkorligi jarayoniga yanada keng joriy etish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi ishi samaradorligini oshirish orqali qonun ijodkorligi natijadorligini ta’minlash lozim. Bu bilan, birinchidan, amaliyotdagi huquqiy bo‘shliqlar yuzasidan kelib tushgan takliflarning umumlashtirilishini hamda e’tirozlar yuzasidan tegishli javoblarni taqdim etishni tezkor ta’minlash, ikkinchidan tartibga solinishi lozim bo‘lgan ayni bir yoxud bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan masalalar yuzasidan turli subyektlar tomonidan ishlab chiqilishi rejalashtirilgan qonun loyihalarining bir vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilishini ta’minlaydi. Natijada xalqqa zarur qonun loyihalarini qabul qilish va ko‘rib chiqishning demokratik tartib-qoidalari joriy etilishiga turtki bo‘ladi.

Huquqiy adabiyotlarda qonun chiqarish jarayoni uning turli bosqichlarida ishtirok etadigan organlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash ma’nosida talqin etilsa-da, qonunchilik faoliyatida turli subyektlar ishtirok etsa ham, ushbu jarayon asosan parlamentning qonun yaratish faoliyati bo‘lib qolaveradi [5].

Qonun ijodkorligi jarayoni qonunni mazmunan tayyorlashni ta’minlovchi o‘zaro aloqador institutlar tizimini belgilashdan, xalq irodasini, jamoatchilik fikrini ifodalashning qat’iy demokratik shakllarini mustahkamlashdan, qonunni yaratish va qabul qilish jarayonida davlat hokimiyati oliy vakillik organi faoliyatining turli shakllari qo‘llanilishini aks ettirishdan iborat. Yu.A.Tixomirov ta’kidlaganidek, “Qonun ijodkorligi – qonun loyihalarini tayyorlash, muhokama etish va qabul qilish bilan bog‘liq bosqichlar hamda xatti-harakatlarni ifodalovchi qonunchilik jarayonidir” [6]. Qonun ijodkorligi bosqichlarini muntazam takomillashib, sayqal topib borishi huquqshunoslik ilmi va huquqiy tizim amaliyotining hamisha diqqat markazida turgan masaladir. Chunki, aynan shu jarayon tufayli qonun yaratiladi. Qonunning jamiyat hayotidagi yuksak o‘rni, qadr-qimmati tabiiy ravishda uni yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonning ahamiyatini beqiyos oshiradi.

Milliy parlamentimizning qonun ijodkorligi faoliyati tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda amaliyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan, kodifikatsiya qilingan qonun hujjatlarini qabul qilish, huquqiy tartibga solish tizimining mukammal bo‘lishini ta’minlovchi ijro mexanizmlarini qonunning o‘zida belgilash, qonunchilikdagi takrorlar va ziddiyatli holatlarni bartaraf etish masalasiga e’tibor qaratmoqda.

Bu borada **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasida “Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish” deb nomlangan 80-maqsadda: “To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish [7]” vazifasi

belgilangani – mazkur soha davlat huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yilning 19-fevral kuni imzolangan “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-sonli qarorda [8] mazkur sohada amalga oshirish lozim bo‘lgan ayrim masalalar ham mavjudligi, uning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Xususan, **birinchidan,** 2024-yil 1-martdan boshlab agar qonun loyihasida havolaki norma qo‘llanilsa, uni amalga oshirishning aniq muddati va mas’ul ijrochi loyihaning o‘zida majburiy tartibda ko‘rsatilishi belgilandi. Buning ijrosini ta’minlash maqsadida tegishli qonun loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish bilan bog‘liq munosabatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va tegishli qo‘shimchalar kiritish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan munosabatlarni qonun darajasiga ko‘tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligi belgilanib, bu haqda qonun loyihasining tushuntirish xatida bayon etilish belgilangan. Bunda qonunosti hujjatlarini qonunlar darajasiga ko‘tarishga oid muhokamalarda ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sirini baholash va bu jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlarining keng ishtirokini ta’minlashga e’tibor qaratish lozim.

Uchinchidan, qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o‘tib, mas’ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari tomonidan uning tartibga solish ta’sirini baholash amaliyoti joriy etilish ko‘rsatilgan. Bunda har bir qo‘mita tarkibida faoliyat ko‘rsatuvchi deputatlarning soha tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashuvini hamda qo‘mitalar ishida ekspertlar guruhlari faoliyatining muntazamligini ta’minlash zarurati mavjud.

To‘rtinchidan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish jarayonida loyihani tayyorlashdan oldin xalqning fikri olinib undan so‘ng loyiha umumxalq muhokamasiga quyish tajribasini eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish belgilangan. Fikrimizcha, qonunchilik bilan qaysi toifadagi normativ-huquqiy hujjatlar aynan ushbu tartibda qabul qilinishi lozimligi tartibini aniqlashtirish lozim.

Xulosa sifatida aytish lozimki, yangilangan Konstitutsiya sharoitida qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning yangi tendensiyalarini tadqiq etish sohaning rivojlanishiga, huquqiy siyosatning samarali olib borilishiga xizmat qiladi.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОТВОРЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В УСЛОВИЯХ ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы совершенствования законотворческого процесса в соответствии с обновленной Конституцией. Новая редакция Конституции создает основные правовые и институциональные основы для эффективной организации правотворчества и реализации правовой политики государства. В статье анализируется законотворческая деятельность парламента и рассматриваются вопросы, связанные с задачами ее совершенствования.

Ключевые слова: Конституция, законодательство, цифровая трансформация, законы прямого действия, правовые механизмы, инновационный фактор, национальный опыт, международный опыт.

PROSPECTS FOR IMPROVING THE PROCESS OF LEGISLATIVE CREATIVITY IN THE CONDITIONS OF THEUPDATED CONSTITUTION

Abstract: This article analyzes the prospects for improving the lawmaking process in accordance with the updated Constitution. The new version of the Constitution creates the main legal and institutional foundations for the effective organization of lawmaking and the implementation of the state's legal policy. The article analyzes the legislative activity of the parliament and considers issues related to the tasks of its improvement.

Key words: Constitution, legislation, digital transformation, laws of direct action, legal mechanisms, innovation factor, national experience, international experience.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 йил 13 февраль, 6-сон, 70-модда.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2022 йил 29 январь.
3. Шарипов Ф. Қонун ижодкорлиги соҳасида янги қадамлар // ttps://parliament.gov.uz/oz/articles/2019
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон
5. Хусанова М.А. Қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи: муаммолар ва ечимлар // Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. - УДК 34 (043.5) (575.1). – Тошкент, 2012. – Б. 26.
6. Тихомиров Ю.А. Правотворчество // Теория права. – Москва, 1998. – С. 164.
7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон
8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.02.2024 й., 07/24/75/0137-сон; 25.06.2024 й., 07/24/231/0445-со

DAVLAT CHEGARASI REJIMINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolbo‘tayev Abdug‘ani Abduraximovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya. Maqolada DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida davlat chegarasi rejimini ta’minlash bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ma’muriy javobgarlik, ma’muriy huquqbuzarlik, davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, chegara zonasi, chegara mintaqasi chegaraoldi hududi.

Jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mamlakatimizni ham chetlab o‘tmadi. Shu tufayli, mas’ul davlat tuzilmalarining oldiga o‘z faoliyatlarini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida amalga oshirish bilan birga ma’muriy qonunchilikning ayrim masalalarini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda [1].

DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida, dastlab mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslaridagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishni keltirib o‘tish mumkin.

Ushbu muammo va kamchiliklarni dastavval qonunchilik hujjatlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish orqali ularni xalqaro huquq normalariga moslashtirish, qolaversa davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berish mexanizmlarini takomillashtirish orqali hal etish lozim bo‘ladi.

Shunday ekan, DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslaridagi mavjud muammolarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tahlili hozirda ularni takomillashtirish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Chunonchi, qonunchilik hujjatlari tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy qonunchiligi bo‘yicha “chegara rejimi”ni buzganlik uchun ma’muriy huquqbuzarlik mavjud bo‘lib, biroq “davlat chegarasi rejimi”ni buzganlik yuzasidan ma’muriy javobgarlikni belgilab beruvchi norma mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi.

Shu o‘rinda huquqshunos olim I.V. Shatoxinning tahlil etilayotgan holat bo‘yicha, “ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy vazifalaridan biri, unda belgilangan javobgarlik tahdidi ostida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishdir” [2] – deya ta’kidlab o‘tgan fikri diqqatga sazovordir.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida” [3]gi qonunning 48-moddasiga ko‘ra, chegara rejimi faqatgina chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibi va qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Mazkur qonunning 52-moddasiga ko‘ra, chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash) va harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibiga shaxslar tomonidan rioya etilmasligi chegara rejimining buzilishi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu qonunning 33-moddasiga muvofiq, davlat chegarasi rejimi: davlat chegarasini jihozlash; davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish; davlat chegarasini chegara daryolari, ko‘llari va boshqa suv havzalarida kesib o‘tish; davlat chegarasini samoviy hududda kesib o‘tish; davlat chegarasini o‘tkazish punktlaridan va havo yo‘laklaridan tashqarida kesib o‘tish; davlat

chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish; davlat chegarasi orqali shaxslarni, transport vositalarini va tovarlarni o‘tkazish; o‘tkazish punktlarida chegara nazoratini amalga oshirish; shaxslarning, transport vositalarining va tovarlarning davlat chegarasi orqali o‘tkazilishini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatib turish; davlat chegarasida va chegara mintaqasida xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish; chegaraviy mojarolarni hal etish tartibini belgilovchi qoidalar majmuidan iborat.

Davlat chegarasi rejimi davlat chegarasida va chegara mintaqasida amal qiladi. Davlat chegarasi rejimi O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risidagi qonunchiligi va xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Qonunning 46-moddasiga ko‘ra, chegara mintaqasida bo‘lish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirishga doir qoidalarning buzilishi davlat chegarasi rejimi buzilishi deb e’tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 504-son qaroriga [4] asosan, chegara rejimi quyidagi tartib va qoidalarni o‘z ichiga oladi:

- **shaxslarning chegara zonasiga va chegara mintaqasiga kirishi hamda chiqishi (o‘tishi), u yerda bo‘lishi (yashashi) va harakatlanishi;**
- **chegara mintaqasida xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat yuritish, ommaviy va boshqa madaniy tadbirlarni o‘tkazish;**
- **O‘zbekiston Respublikasining ichki suvlarida, chegara bo‘yi daryolari, ko‘llari va boshqa suv havzalarining suv qismlarida ovchilik, tadqiqot, qidiruv faoliyati va boshqa faoliyat yuritish.**

Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi 504-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi nizom”da ko‘zda tutilgan ayrim normalar amaldagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonun normalariga zid.

Yuqoridagilarni inobatga olib, qonunosti hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish orqali Hukumatning 2018-yildagi 504-son qarori qayta ko‘rib chiqilishi (davlat chegarasi rejimiga oid normalari) hamda qonuchilikdagi mavjud huquqiy ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi rejimi to‘g‘risidagi nizom” ishlab chiqilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ushbu masala yuzasidan mutaxassislarga murojaat qilinib, mavjud davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda “Davlat chegarasi rejimi qoidalarini” belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjat to‘liq shakllantirilmaganligi bois, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi rejimi to‘g‘risidagi nizom”ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlash orqali ishlab chiqishga nisbatan munosabati so‘ralganida, ularning 98 foiz qismi mazkur taklifni ma’qullashlarini ta’kidlab o‘tishdi.

Shuningdek, MJtKning [5] 224-moddasida ko‘zda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik davlat chegarasi rejimini belgilovchi tartib va qoidalarni o‘zida to‘liq qamrab olmagan.

Xususan, mazkur moddaning dispozitsiyasiga ko‘ra, chegara zonasiga hamda shaxslarning kirishi va bo‘lishiga vaqtinchalik cheklov o‘rnatilgan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish MJtKning 224-moddasi bo‘yicha javobgarlikka sabab bo‘ladi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunning 46-moddasiga ko‘ra: davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish; davlat chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish; davlat chegarasida va chegara mintaqasida bo‘lish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni yuritish qoidalarini buzish davlat chegarasi rejimining buzilishidir.

MDH mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksining [6] 18.2-moddasiga ko‘ra, shaxslarning chegara zonasiga kirish (o‘tish), vaqtinchalik bo‘lish, harakatlanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq harakatlari ushbu modda bilan javobgarlikka tortilishga sabab bo‘lishi, kodeksning 18.1-moddasiga ko‘ra esa, shaxslarning aynan davlat chegarasida va uning yaqinida o‘rnatilgan qoidalarni buzishi mazkur modda bo‘yicha davlat chegarasi rejimi qoidalarini buzish sifatida baholanib javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Qozog‘iston Respublikasining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi [7] (510, 514-moddalari), Belarus Respublikasining

Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi [8] (24.19, 24.20-moddalari) ham ushbu tartib belgilanib o‘tilgan.

Davlat chegarasi rejimi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi kabi mazkur davlatlarning davlat chegarasi to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq belgilanib o‘tilgan.

Shuningdek, mazkur davlatlarning davlat chegarasi to‘g‘risidagi qonunchiligiga ko‘ra, chegara rejimi bu aynan chegara zonasida shaxslarning yashashi, bo‘lishi, harakatlanishi, madaniy, xo‘jalik va boshqa faoliyatni yuritish tartibi ekanligi belgilab berilgan.

Mutaxassislar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovlarida ham mazkur masalaga oydinlik kiritilishiga erishilgan bo‘lib, ularga “MJtK “O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi rejimini buzganlik” bo‘yicha alohida modda bilan to‘ldirilishiga munosabatingiz?” – degan taklif bilan murojaat qilinganida, respondentlarning 73,4 foizi – ushbu fikrni ma’qullashlarini, bu orqali MJtKning 224-moddasidagi mavjud huquqiy qarama-qarshiliklar bartaraf etilishini, 25,6 foiz qismi – bunga MJtKga o‘zgartirish v qo‘shimchalar kiritish uchun asoslar yetarli emasligini, 1 foizi esa bu taklifga qarshi ekanligini bildirib o‘tishgan.

Shunga muvofiq, fikrimizcha xorij davlatlarining ma’muriy qonunchilik bo‘yicha ilg‘or tajribasini respublikamiz qonunchiligiga tatbiq etish maqsadida, davlat chegarasi rejimini buzganlik bo‘yicha alohida normani shakllantirish uchun MJtKga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq:

a) quyidagi mazmundagi 2243-modda bilan to‘ldirilishi:

224³-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi rejimini buzish

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi rejimini buzish, ya’ni Davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish, Davlat chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish, Davlat chegarasida va chegara mintaqasida bo‘lish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyat yuritish tartibini belgilovchi qoidalarni buzish, basharti jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik chet-el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha jarima solishga yoki ularni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi bir yildan uch yil muddatgacha cheklangan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborilishiga sabab bo‘ladi”.

b) 248²-moddaning birinchi qismidagi “224¹-moddasining birinchi qismida” so‘zlaridan keyin “224³-moddasi” so‘zlari bilan to‘ldirilishi;

v) 287-moddaning birinchi qismi 2-bandidagi “224¹-moddasida” so‘zlaridan keyin “224³-moddasi” so‘zlari bilan to‘ldirilishi;

g) 291-moddaning birinchi qismi “e” kichik bandidagi “224²” raqamidan keyin “224³-moddalarida” so‘zlari bilan to‘ldirilishi.

Xulosa o‘rnida, bugungi kunda Davlat chegarasi daxlsizligiga chetdan kirib keladigan tahdidlar, qo‘shni davlatlarda bo‘lib o‘tayotgan siyosiy nizolar, Davlat chegarasi orqali noqonuniy ravishda kirib kelayotgan tovarlar va kontrafakt mahsulotlar Davlat chegarasini qo‘riqlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda hamda mazkur sohadagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha bildirilgan takliflar DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье выдвигаются предложения по внесению изменений и дополнений в законодательные акты, направленные на решение возникающих проблем обеспечения режима государственной границы и их решения в делопроизводственной деятельности пограничных войск ГПС по делам об административных правонарушениях.

Ключевые слова: административная ответственность, административное правонарушение, режим государственной границы, пограничный режим, пограничная зона, пограничная зона.

Abstract. The article put forward proposals for amendments and additions to the legislation aimed at the problems arising and their solutions to the provision of the state border regime in the activities of the dxx border troops in conducting cases of administrative offenses.

Keywords: administrative responsibility, administrative offense, state border regime, border regime, border zone, border region border area.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибрагимов С.М., Маъмурий ҳуқуқбузарлик учун жазо чораларини такомиллаштиришнинг айрим масалалари, «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4 — Б. 1877-1884.

2. И.В.Шатохин., Административные правонарушения в сфере обеспечения режима пребывания иностранных граждан и лиц без гражданства на территории Южного федерального округа: историко-правовой анализ: Автореф. дисс. … канд. юрид. наук. – М.: Краснодарский университет МВД России, 2012. – С. 30.

3. «Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегараси тўғрисида»ги 2023 йил 13 сентябрдаги ЎРҚ–868-сон Ўзбекистон Республикаси қонуни // электрон манба: https://lex.uz/docs/6605257 (мурожаат вақти: 19.12.2023).

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 июндаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чегара режими тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 504-сон қарори // электрон манба: https://lex.uz/docs/3810506 (мурожаат вақти: 15.01.2024).

5. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, 3-сон, 6-модда.

6. Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях от 30 декабря 2001 года № 195-ФЗ // Электрон манба: http://zakonbase.ru/koap/. (мурожаат вақти: 15.12.2023).

7. Кодекс Республики Казахстан об административных правонарушениях от 5 июля 2014 года // Электрон манба: https:// kodeks_by.com/pikoap_rb.htm/ (мур. вақти: 15.12.2023).

8. Кодекс Республики Беларусь об административных правонарушениях от 21 апреля 2003 года № 194-З / [Эл. манба]. – http://etalonline.by/?type=text&regnum=Hk0300194#load_text_none_1_ (мур. вақти: 15.12.2023).

GUVOHNING YOKI JABRLANUVCHINING BILA TURIB YOLG‘ON KO‘RSATUV BERISHI: OMILLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abdullayev Akmaljon Yo‘lchiboyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada guvoh yoki jabrlanuvchini yolg‘on ko‘rsatuv berishga undovchi asosiy omillar ko‘rib chiqilib, guruhga mansubligiga qarab tasniflanadi va har bir tasnif bo‘yicha batafsil yoritilib, ularning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlillar orqali omil so‘zining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: guvoh, jabrlanuvchi, yolg‘on ko‘rsatuv, omil, obyektiv omil, subyektiv omil.

Guvoh va jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilishdagi asosiy dalil manbalaridan biridir. Ayniqsa, guvohning ko‘rsatuvlarisiz fosh etilgan jinoyat ishlarini uchratish mushkul. Guvoh va jabrlanuvchining protsessual maqomi ularning huquq va majburiyatlarini belgilash bilan bir qatorda, ular tomonidan majburiyatlarini bajarmaganlik yoki buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilganligini ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasida surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog‘ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganligi uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan. Chunki yolg‘on ma’lumotlar jinoyat ishida haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qiladi. Bu esa A.I. Toshpo‘latovni ta’biri bilan aytganda, sud muhokamasining cho‘zilishiga, qo‘shimcha guvohlar chaqirilishiga, qayta ekspertiza tayinlanishiga, jinoyat ishining qo‘shimcha tergovga qaytarilishiga, aybdorning oqlanishiga, aybsiz shaxsning jazoga hukm qilinishiga hamda ishni boshqacha tarzda noxolisona hal etilishiga olib keladi [1].

Barchamizga ma’lumki, guvohlar va jabrlanuvchilar tomonidan qasddan yolg‘on ko‘rsatuvlar berishning asl sababini, shuningdek, ushbu jinoiy harakatga sabab bo‘lgan omillarni hisobga olish zarur. Darhaqiqat, tergov ishining samaradorligi, bizning fikrimizcha, ko‘p jihatdan jinoyatning sabab va omillarini hisobga olish-olmasligiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan dastlab guvoh va jabrlanuvchini bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishga undovchi omillarni tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Omil” so‘zi arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “sabab; ta’sirchan kuch” degan ma’nolarni bildirishi, lug‘aviy jihatdan esa “ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo‘lishi uchun sabab bo‘lgan narsa; sabab” [2] kabi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan.

Rus tilida esa “omil”(faktor) (lotinchadan factor - bajarish, yuzaga keltirish) qandaydir jarayon yoki hodisadagi lahza, muhim holat [3] sifatida ta’riflanadi. “Omil” so‘zini qandaydir jarayonning harakatlantiruvchi kuch, uning xarakterini yoki individual xususiyatlarini belgilovchi hodisa [4] sifatidagi yana bir ta’rifi ham mavjud.

Kembrij lug‘atida esa “omil”(factor) esa-biror narsaning natijasiga ta’sir qiluvchi fakt yoki vaziyat [5] sifatida ta’riflangan.

Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi omillari uning sabablaridan farqli ravishda munozarali emas.

Sir emaski, bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishga undovchi omillar uning sababi va undan ko‘zlangan maqsadni shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Surishtiruvchi yoki tergovchi guvoh va jabrlanuvchilarning yolg‘on ko‘rsatuv berishga munosabatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni iloji bo‘lsa, dastlabki so‘roqdan oldin aniqlab olishlari lozim.

G.Grossning fikricha, guvohlikka jismoniy, ruhiy va salbiy xarakterdagi ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi yoki u ta’kidlaganidek, “yomon niyati va yolg‘onchiligi, xatolari va aldanishi ko‘pincha guvohning o‘z xulosalari va u faqat o‘zi ko‘rgan va eshitgan narsalar haqida gapirayotganiga ishonchi shunchalik cheksiz ta’sir qiladiki, biz juda kamdan-kam hollarda guvohning ko‘rsatuvini obyektiv, mutlaqo to‘g‘ri

va hech qanday tarzda tavsiya etilmaydigan deb tan olishimiz mumkin.”[6]

O.A.Karpenko guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib yolg‘on ko‘rsatuvlar berishiga turtki bo‘lgan omillarni ushbu omillarning bila turib yolg‘on ko‘rsatuvlar berish predmetiga aloqadorligiga qarab subyektiv va obyektiv omillarga ajratishni taklif qilgan. Unga ko‘ra, subyektiv omillar o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: 1) shaxsning xarakter va temperamenti; 2) shaxsning hissiy holati; 3) jinoiy hodisa ishtirokchilari bilan turli munosabatlar (ish, do‘stlik, oila); 4) jinoiy ahamiyatga ega bo‘lgan voqeaga o‘zining (ichki) munosabati.

Obyektiv omillar esa quyidagilarni qamrab oladi:

1) ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar;

2) tergovchining kasbiy mahorati yetishmasligi;

3) manfaatdor tomonlarning ta’siri (ruhiy yoki jismoniy) [7].

Biz guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish omillarini O.A.Karpenko tomonidan taklif etilgan tasniflanishini to‘liq qamrab olingan deb hisoblay olmaymiz. Xususan, u tomonidan subyektiv omillar qatorida shaxsning shaxsning jinsi va unga bog‘liq psixologik fazilatlar hamda shaxsning yoshga oid xususiyatlari inobatga olinmagan. Zero, shaxsning jinsi va yoshi yolg‘on ko‘rsatuv berishga juda kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu ikki omilni subyektiv omillar qatoriga kiritish lozim.

Bundan tashqari, obyektiv omillar qatorida sanab o‘tilgan manfaatdor tomonlarning ta’siri (ruhiy yoki jismoniy) aslida subyektiv tomonni aks ettiradi. Chunki shaxsga o‘tkazilgan har qanday ruhiy yoki jismoniy ta’sir uni kechinmalarida, ruhiyatida o‘z aksini topadi. Misol uchun, ayblanuvchi tomonidan guvohga turli ruhiy ta’sir o‘tkazishga urinishlar bo‘lgan taqdirda ham, u ushbu ruhiy ta’sirni e’tiborsiz qoldirishi, ya’ni qo‘rqmasligi mumkin. Bunda uning temperamenti, shaxsiga oid subyektiv xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Bizningcha, obyektiv omil sifatida guvoh yoki jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni e’tirof etish o‘rinli bo‘lar edi.

Yuqorida muhokama qilingan mulohazalardan xulosa qilgan holda, guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi omillarini quyidagicha tarzda tasniflashni ilgari suramiz:

Subyektiv omillar: 1. Shaxsning xarakter va temperamenti; 2. Shaxsning hissiy holati; 3. Shaxsning jinoiy hodisa ishtirokchilari bilan yaqin munosabatlari; 4. Shaxsning jinoiy hodisaga nisbatan munosabati; 5. Shaxsning jinsi va unga bog‘liq psixologik fazilatlar; 6. Shaxsning yoshga oid xususiyatlari.

Obyektiv omillar:

- ☑ **Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar;**
- ☑ **Tergovchi yoki surishtiruvchining kasbiy mahorati yetishmasligi;**
- ☑ **Guvoh yoki jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolar.**

Quyida subyektiv va obyektiv omillarni batafsil yoritib o‘tsak.

Subyektiv omillar:

1. Shaxsning xarakter va temperamenti. Tergovchi yoki surishtiruvchining ma’lum kriminalistik vositalari, usullari va taktikalarini tanlashi temperament turiga (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) va individual xarakter xususiyatlariga (ayniqsa, bila turib yolg‘on guvohlik berishga ta’sir qiluvchi xudbinlik, iroda zaifligi, hasad va boshqa shu kabi xarakter xususiyatlari) bog‘liq.

Temperament odamning individual xatti-harakatlarini ifodalab turuvchi tug‘ma va turg‘un psixofiziologik xususiyatlar yig‘indisi. Temperament tug‘ma va o‘zgarmasdir. Inson qaysi temperament egasi bo‘lsa, umrbod o‘sha temperamentda qoladi [8]. Xolerik, sangvinik va flegmatik temperamentning kuchli, melanxolik esa zaif turi sanaladi [9]. Atrofda bo‘layotgan hodisalarga tez munosabat bildiruvchi, taassurotlarini tez-tez o‘zgartirishga intiluvchi, harakatchan bo‘lgan kishi sangvinik, yuragi keng, doimiy va chuqur his-tuyg‘uga ega, harakatlari va nutqi bir maromida bo‘lgan kishi flegmatik, juda g‘ayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, tez, qizg‘in emotsional “portlash” va kayfiyatning keskin o‘zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi holerik va ta’sirchan, chuqur kechinmali, gap ko‘tara olmaydigan, atrofdagi voqealarga unchalik e’tibor bermaydigan, o‘zini nazorat qila oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar melanholik deb ataladi [10].

Xolerik va sangvinik bo‘lgan odamlar boshqalar bilan munosabatlari kamroq farqlanadi, hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirishga moyillik kamroq. Flegmatik va melanxolik

kishilar esa tashqi ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga, shubha va mulohaza yuritishga ko‘proq moyillikni namoyon qiladi, ular nizolardan qochishga moyildirlar, lekin qaror qabul qilishda ular ko‘pincha o‘zlariga ishonmaydilar, ruhiy quvvat tashvishlanish va introspeksiyaga ketadi [11]. Shaxsning temperament turini aniqlash tergovchiga o‘z nutqining ritmi va sur’atini, so‘roqning davomiyligi va intensivlik darajasini tanlashiga, psixologik aloqani yanada samarali o‘rnatishga yordam beradi va so‘roq qilinuvchidan to‘g‘ri ko‘rsatuv olishda katta rol o‘ynaydi.

2. Shaxsning hissiy holati. Kriminalistik adabiyotlarda [12] jabrlanuvchilar ko‘pincha kuchli hissiy holatda, ayniqsa birinchi so‘roq paytida jinoyat sodir bo‘lgan holatlarni eslay olmaydilar. Bunday hollarda, ya’ni jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so‘roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklariga shubha tug‘ilganda ekspertiza tayinlash shart hisoblanadi [13].

3. Shaxsning jinoiy hodisa ishtirokchilari bilan yaqin munosabatlari. Guvoh yoki jabrlanuvchining boshqa protsess ishtirokchilari bilan yaqin munosabatlari ish yuzasidan, o‘zaro do‘stlik yoki oilaviy bo‘lishi mumkin. Biz o‘rgangan jinoyat ishlarining 88 %da guvoh yoki jabrlanuvchi bila turib yolg‘on ko‘rsatma bergan jinoyat ishida aybdorni bilgan; 2 %da jinoyat sodir bo‘lgunga qadar bir-birlarini tanimagan, 10 %da qarindoshlik aloqasi bo‘lgan.

Barchamizga ayonki, har qanday guvoh yoki jabrlanuvchining manfaatlari va dastlabki tergov organlarining manfaatlari to‘qnash kelib qolsa, ular inson tabiatiga xos ravishda o‘zlarining manfaatlarini tanlaydilar.

E.U.Babayevaningso‘zlarigako‘ra,dastlabki tergovga jiddiy qarshilik gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tanishlari va yaqinlarini so‘roq qilishda yuzaga keladi. Bu ataylab yolg‘on ko‘rsatuv berish (68%), ko‘rsatuvni o‘zgartirish (65%) va ko‘rsatuv berishdan bosh tortish (48%) bilan ifodalanadi [14].

Shunisi e’tiborga loyiqki, bunday hollarda guvoh agar gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshi hisoblansa, ko‘rsatuv berishdan bosh tortishga huquqi mavjud. Zero, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 116-moddasida gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o‘zlarining roziliklari bilan so‘roq qilinishlari mumkinligi,

117-moddasi 2-qismida esa gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmasliklari ko‘rsatib o‘tilgan. E’tiborli jihati shundaki, ushbu norma Rossiya Federatsiyasida konstitutsional prinsip sifatida e’tirof etilgan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 51-moddasi 1-qismida “Hech kim o‘ziga, turmush o‘rtog‘iga va federal qonun bilan belgilanadigan yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas” [15] deb qayd qilingan. Shuningdek, AQSH Konstitutsiyasiga beshinchi tuzatish o‘z-o‘zini ayblashdan himoya qiladi [16].

Fikrimizcha, mazkur qoida konstitutsional prinsip sifatida bosh qomusimizda o‘z ifodasini topishi lozim.

4. Shaxsning jinoiy hodisaga nisbatan munosabati. Tadqiqotimiz davomida tergov organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijasida, bugungi kunda ayniqsa guvohlar har qanday turdagi jinoyat ishlari bo‘yicha tergov jarayonida haqqoniy ko‘rsatma berishni va tergov qilishda ishtirok etishni istamaydiganlar soni sezilarli darajada oshib borayotganligiga guvoh bo‘ldik.

5. Shaxsning jinsi va unga bog‘liq psixologik fazilatlar. Tadqiqotimiz davomida yolg‘on ko‘rsatuv berganligi uchun 54 % ayollar, 46% erkaklar jinoiy javobgarlikka tortilganligi aniqlandi.

Darhaqiqat, ayollar ko‘proq his-tuyg‘ularga ega va erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq ma’lumot uzatishda imo-ishora tilidan foydalanadilar. Ular nima to‘g‘ri va to‘g‘ri ekanligi haqidagi g‘oyalariga asoslanib, tez-tez aldashadi. Agar ayol o‘z yolg‘oniga ishonsa, uni boshqacha tarzda ishontirish juda qiyin. Ayolning yolg‘onlari odatda “kichik yolg‘onlarga” asoslanadi va zararsiz mubolag‘a osongina to‘g‘ridan-to‘g‘ri noto‘g‘ri ma’lumotlarga aylanadi. Aldaganda, ayol o‘zini samimiy odam deb bilishi mumkin, chunki yarim haqiqatdan aldashga o‘tish unga deyarli ko‘rinmaydi. Erkaklar ko‘proq o‘zlarini himoya qilish yoki boshqa shaxslarning “foydali ishi uchun” yolg‘on gapirishadi. Ularning yolg‘oni ayollarning nima uchun va qanday maqsadda yolg‘on gapirishlarini tushunishlaridan ko‘ra aniqroqdir. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, erkaklar aldov, yolg‘on, nohaqlikning

o‘ziga xos belgilarini va shuning uchun bunday xatti-harakatlarning axloqiy jihatdan nojoizligini ayollarga qaraganda yaxshiroq bilishadi. Shunga ko‘ra, erkaklar bu hodisalarni qachon, qanday va qaysi sohada qo‘llash haqida ongni yanada aniqroq shakllantiradilar [17].

A.I. Jilyayevning ta’kidlashicha, ayollar jinoyat ishlari bo‘yicha guvoh sifatida qatnashish ehtimoli ko‘proq bo‘lib, ular erkaklarnikiga qaraganda rahm-shafqat, hamdardlik, shuningdek, to‘g‘ri ko‘rsatma berganlik uchun qasos olish va qo‘rquv hislariga ko‘proq moyil bo‘lishadi [18].

Psixologik adabiyotlarda “erkaklar ko‘proq haqiqatgo‘y, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiqchasiga, ba’zan qo‘pollik darajasiga ko‘ra ko‘rib chiqilsa, ayollar turli xil yolg‘onlarga, xususan, yashirinlik, aldov va yolg‘on uydirmalarga moyillikdan “shubhada qoladilar” [19].

Shuningdek, O.Fray erkaklar va ayollar yolg‘on gapirganda o‘zlarini boshqacha tutishini ta’kidlaydi [20]. Yolg‘on ma’lumotlar haqida xabar bergan ayollar o‘zlarini erkaklarnikiga qaraganda ancha noqulay his qilishadi va ular “har doim sezgi va his-tuyg‘ularga ko‘proq e’tibor berishadi, qachon ayol sarosimaga tushib qolsa, u aldashni, qochishni va oldingi ko‘rsatuvi noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlay boshlaydi, chunki u undan nimani xohlashlarini tushunolmaydi” [21]. G.Grossni ta’kidlashicha esa, “Har bir tajribali jinoiy sudya ishda ayolni izlashga odatlangan: boshqa hollarda bu xatolikka olib kelishi mumkin, ammo e’lon qilingan “cherchez la femme” [22] qoidasini hech qachon unutmaslik” va “Jinoyat haqidagi fikr har doim ham undan kelib chiqavermaydi, lekin ko‘pincha aybdorning jinoyatdan oldin yoki keyin sodir bo‘lgan eng muhim harakatlari uning tufayli yoki u uchun sodir bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi” [23].

6. Shaxsning yoshga oid xususiyatlari. Tadqiqot doirasida jinoyat ishlari o‘rganilganida, jinoyat sodir etgan subyektlarning yoshi 16 yoshdan 25 yoshgacha 24%, 26 yoshdan 35 yoshgacha – 48 %, 36 yoshdan 50 yoshgacha – 22 %, 50 yoshdan oshganlar – 6 %ni tashkil etishi aniqlandi.

Qoidaga ko‘ra, bolalarning yolg‘onlari aqlga sig‘maydi. Ular ko‘proq fantaziya qilishadi. Yoshi bilan odamlar ko‘proq yashirin bo‘lib qoladilar va ularning ataylab aldash qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Alan Piz bu haqiqatni yolg‘onni ko‘rsatadigan qo‘l ishorasi misolida tasdiqlaydi [24]. Demak, besh yashar bola ota-onasiga yolg‘on gapirsa, bir yoki ikki qo‘li bilan og‘zini yopadi. Yolg‘on gapirayotgan o‘smir qo‘lini og‘ziga olib boradi, lekin uni aniq yopmaydi, faqat barmoqlarini lablari chizig‘i bo‘ylab yuradi. Yillar davomida og‘zingizni qo‘lingiz bilan yopish imo-ishorasi boshqa odamlar uchun ko‘rinmas bo‘lib qoladi. Voyaga yetgan odam yolg‘on gapirganda va qo‘li og‘zini yopish uchun cho‘zilsa, so‘nggi daqiqada qo‘l ongli ravishda lablaridan chetga chiqadi va burunga tegadi.

Shaxsiy tergov harakatlarini rejalashtirish va o‘tkazishda tergovchi jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarining, ayniqsa guvohlar va jabrlanuvchilarning yoshini hisobga olishi kerak, chunki atrofdagi dunyoni to‘g‘ri idrok etish inson rivojlanishining ma’lum darajasi bilan sodir bo‘ladi. Voyaga etmaganlar, masalan, bilim darajasi va hayotiy tajribasining yetarli emasligi, xayolparastlik bilan ajralib turadi. Keksa odamlar yuqori darajada rivojlangan burch hissi bilan ajralib turadi, chunki ko‘p hollarda ular ko‘p yillar davomida erishgan obro‘sini ko‘proq qadrlashadi. Shuningdek, jinoyat ishi doirasida tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari va boshqa harakatlarni o‘tkazish taktikasi yoshga qarab tanlanadi.

Obyektiv omillar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar. Ilmiy izlanishlarimiz davomida jinoyat ishi hujjatlarini o‘rganganimizda, bila turib yolg‘on ko‘rsatuv bergan guvoh va jabrlanuvchilarning 87,8 % doimiy daromad manbaiga ega emas ekanliklari oydinlashdi.

Fikrimizcha, guvoh va jabrlanuvchilarning qasddan yolg‘on ko‘rsatuv berishiga ularning turmush darajasining pastligi ham katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki ushbu omil tergov qilinayotgan jinoyat ishi bo‘yicha qisman yoki to‘liq yolg‘on ko‘rsatuvlar berishi evaziga ayblanuvchi tomonidan moddiy manfaat taqdim etilgan taqdirda guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan qasddan yolg‘on ko‘rsatuvlar berishga turtki bo‘lishi mumkin.

2. Tergovchiga kasbiy mahoratning yetishmasligi. Bizningcha, guvoh va jabrlanuvchilarning jinoiy ahamiyatga molik hodisaga munosabati kabi subyektiv omil bevosita ana shu obyektiv omilga bog‘liqdir. Tergovchida kasbiy mahoratning yetishmasligi guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan bila turib yolg‘on ko‘rsatuvlar berishni bartaraf etishda jiddiy to‘siq bo‘ladi. Bunday tergovchilar jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida ma’naviy-axloqiy va qonun normalariga zid bo‘lgan choralar ko‘rishadi, olingan dalillarni

amaldagi qonun hujjatlariga zid ravishda hujjatlashtirishadi. Tergov amaliyotimizdan ma’lumki, aksariyat guvoh yoki jabrlanuvchi jinoyat ishini tergov qilayotgan tergovchining noto‘g‘ri yoki odobsiz xatti-harakatiga javoban, bu ishni u tergov qilmasligini, unga muammo tug‘dirishni va chalg‘itishni maqsad qilib ham yolg‘on ko‘rsatuv berishlari mumkin. Zotan, kam toifali jinoyatlar qatorida yolg‘on guvohlik berish jinoyatini ham kasbiy mahorati, tajriba va ko‘nikmasi yuqori bo‘lgan tergovchi yoki surishtiruvchi tergov qilishi lozim. Chunki ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishdagi birgina xato kelgusida ayblanuvchini jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod bo‘lishiga yoki aniq aybdor aniqlanmasdan qolishiga olib kelishi mumkin. Afsuski, ushbu yuzasidan o‘tkazilgan so‘rov natijasida ushbu turdagi jinoyatlarni asosan 1 yildan 3 yilgacha ish tajribasiga ega, malaka va ko‘nikmasi hali yetarli darajada shakllanmagan yosh surishtiruvchi yoki tergovchilar tergov qilayotganligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, sud-tergov amaliyotida juda kam uchraydigan ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishni muqaddam ushbu turdagi jinoyat ishini tergov qilgan yoki uzoq yillik ish tajribasi, malaka va ko‘nikmasiga ega bo‘lgan tergovchilarga topshirish lozim.

Darhaqiqat, bu borada A.I.Vlasovning “kasbiy psixologik kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida bila turib yolg‘on ko‘rsatuvlarni aniqlash bo‘yicha malakasini rivojlantirish tergovchiga qo‘yilgan funksional va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni va kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi” [25] degan fikrga qo‘shilmaslik imkonsiz.

3. Guvoh yoki jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolar. Jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek ularning oila a’zolari yoki yaqin qarindoshlariga o‘ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo‘q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o‘zga g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayotir deyish uchun yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha’ni, qadr-qimmati va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishlari shart [26].

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash; shaxsni, uy-joyni va boshqa mol-mulkni qo‘riqlash; himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish; vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish; boshqa yashash joyiga ko‘chirish, ish (xizmat) yoki o‘qish joyini o‘zgartirish; hujjatlarni almashtirish; himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilishini cheklash; qamoqda yoki jazoni o‘tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo‘shimcha xavfsizlik choralarini ta’minlash [27] kabi xavfsizlik choralari ko‘rilishi mumkin. Biroq, bugungi kunda sud-tergov amaliyotida guvoh va jabrlanuvchilarning xavfsizlik choralarini ta’minlash deyarli amalga oshirilmasdan kelinmoqda.

Bizningcha, V.Ya.Shapakidze o‘z tadqiqotida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Davlat jinoiy protsessida yordam berayotgan shaxslarni nafaqat himoya qila olmaydi, balki bunday ta’sirning oldini olish uchun yetarli moddiy kafolatlar – mol-mulkini va daromad manbalarini saqlash, shuningdek, protsessda ishtirok etganlik uchun kompensatsiya to‘lash va davlatning muhim funksiyalarini bajarishda ijobiy yordam ko‘rsatishni rag‘batlantirishga qodir emas” [28].

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining 14.01.2019yildagi“Jabrlanuvchilarni,guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-515-son qonunida va JPKda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilganligini inobatga olsak, A.Umarxonovning ta’biri bilan aytganda, ichki ishlar organlarida odil sudlovga ko‘maklashuvchi shaxslar himoyasini ta’minlashning protsessual choralarini amalga oshirish uchun moddiy texnikaviy imkoniyatlar yetishmaydi [29]. Shu bois, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanadigan ichki ishlar organlarida yangi tuzilmalarni tashkil etish talab etiladi.

Tadqiqotimiz davomida, amaliyotchi xodimlar o‘rtasida guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan yolg‘on ko‘rsatuv berishning yuqoridagi omillarni bartaraf etishning eng samarali choralari aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rov natijasida, respondentlarning 85 % yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, 1 % jabrlanuvchini (guvohni) ayblanuvchi va boshqa manfaatdor shaxslarning tazyiqlaridan himoya qilish, 14 % poligrafiyadan foydalanishni eng samarali chora deb bilishlari oydinlashdi.

Kriminalistik adabiyotlarda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “har bir ozmi-ko‘p e’tiborga loyiq holat o‘z atrofida murakkab ijtimoiy-psixologik vaziyatni yaratadi va bu tergov jarayoniga sezilarli ta’sir qiladi” [30]. Tergovchi yoki surishtiruvchi o‘zining amaliy faoliyati davomida mish-mish yoki anonim xabarlar har doim ham asossiz bo‘lmasligini, u guvoh yoki jabrlanuvchilarning shaxsini tavsiflovchi muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkinligini hisobga olishi kerak.

Shunday ekan, tadqiqot natijasida to‘planganma’lumotlardankelibchiqib, tergov amaliyotida surishtiruvchi yoki tergovchilarga quyidagi hujjatlar guvoh yoki jabrlanuvchiga yuqorida zikr etilgan aynan qaysi omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi va boshqa shaxsiy xususiyatlar haqida ma’lumot olish imkonini berishini tavsiya qilamiz:

- shaxsiy hujjatlar (pasport, harbiy guvohnoma va boshqalar) Ushbu hujjatlar u haqidagi rasmiy ma’lumotlarni olishga va shu orqali boshqa ma’lumotlarni to‘plash yo‘nalishini belgilashga xizmat qiladi. Misol uchun, u qayerda va kimlar bilan harbiy xizmat o‘taganligini aniqlab, xizmat o‘tagan joyidan yoki xizmatdoshlaridan u haqda qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini beradi;
- yashash joyidagi M.F.Yda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar. Bu orqali shaxsning yashash sharoiti, oilaviy ahvoli va muhiti (oilali, ajrashgan, janjalkash va x.k), oila a’zolari, tirikchilik manbai, oila a’zolari, qarindoshlari va qo‘ni-qo‘shnilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda boshqa ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.
- maxsus hisoblardagi ma’lumotlar. Pasport ma’lumotlari, yashash joyi, muqaddam sudlanganligi, ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlashga imkon beradi;
- guvohlar va jabrlanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlaridagi shaxsiy sahifalari. Shu orqali ularning do‘stlari va tanishlari doirasi, moddiy ta’minot darajasi, qiziqishlari va boshqa muhim ma’lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin. holatlarni o‘rnatishingiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa aytib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, qasddan yolg‘on ko‘rsatuv berish maqsadi turli xil sabab va omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularni “sof” shaklda aniqlash juda qiyin, hatto imkonsizdir. Tergovchi yoki surishtiruvchi jinoyatni tergov qilish jarayonini rejalashtirayotganda, guvoh va jabrlanuvchilarning qarshiliklarini bartaraf etish taktikasini tanlashda, avvalo, yolg‘onning sababi va unga turtki bo‘lgan omillarni aniqlashi kerak. Shundagina yolg‘on ko‘rsatuv berishni maqsad qilgan guvoh yoki jabrlanuvchi uni oldida ojiz qoladi va o‘z maqsadiga yeta olmaydi.

ЛОЖНЫЕ ПОКАЗАНИЯ СВИДЕТЕЛЯ ИЛИ ПОТЕРПЕВШЕГО: ФАКТОРЫ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные факторы, побуждающие свидетеля или потерпевшего к даче ложных показаний, классифицируются в зависимости от их принадлежности к определенной группе, и каждый класс факторов подробно раскрывается с акцентом на их особенности. Кроме того, посредством сравнительного анализа раскрывается содержание термина “фактор”.

Ключевые слова: свидетель, потерпевший, ложные показания, фактор, объективный фактор, субъективный фактор.

FALSE TESTIMONY BY A WITNESS OR VICTIM: FACTORS AND THEIR CHARACTERISTICS

Abstract. This article examines the main factors that encourage a witness or victim to provide false testimony, classifies them based on their group affiliation, and provides detailed descriptions of each classification with a focus on their specific characteristics. Additionally, the meaning of the term «factor» is elucidated through comparative analysis.

Key words: witness, victim, false testimony, factor, objective factor, subjective factor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тошпўлатов А.И. Ёлғон гувоҳлик (жиноят ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлар) –Т.: ЎзР ФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти,2009. –Б. 150.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т., 2016-2018. – Б. 122.

3. Ожегов, С. И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. — Москва: Азбуковник, 1997. — 944 с.

4. Толковый словарь русского языка С.И. Ожегова. [Электронный ресурс]. URL: http://www.ozhegov.org/ (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

5. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/ (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 06.06.2023).

6. Гросс, Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики / Г. Гросс. – СПб: Типография М. Меркушева (СПб), 1908. – 1062 с.

7. Карпенко О.А. Криминалистические средства и методы преодоления дачи заведомо ложных показаний свидетелями и потерпевшими : дис… канд. юрид. наук. – Москва, 2015. С. 44-45

8. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.

9. Индивидуально-психологические особенности. Северо-Кавказский гуманитарно-технический институт.-2019. https://studfile.net/preview/8962331/ (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

10. Б.Н. Сирлиев ва бошқалар. Дастлабки тергов фаолияти психологияси: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 85-86 б.

11. Карнаухова О.Г. Тактика преодоления противодействия расследованию со стороны свидетелей и потерпевших: дис… канд. юрид. наук. – Санкт-Петербург, 2015. С. 174

12. Федоренко А.Ю. Криминалистическая техника в предупреждении и пресечении противодействия раскрытию и расследованию преступлений: дис. … канд. юрид. наук. М., 2001. С.160.

13. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси// https://lex.uz/docs/111460 (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

14. Бабаева Э.У. Основы криминалистической теории преодоления противодействия уголовному преследованию: дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2006. С. 285.

15. Конституция Российской Федерации.http://www.constitution.ru/ (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

16. https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/cnstUS.(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

17.Уайзмнер Р. Странная логика наших поступков: психология лжи и обмана. – М. – Владимир: АСТ Астрель ВКТ, 2010. С.135.

18. Жиляев А.И. Криминологическая характеристика и предупреждение заведомо ложных показаний свидетелей и потерпевших: дис. ... канд. юрид. наук. Н. Новгород, 2002. С. 66.

19.Дюпра Ж. Ложь. Пер. с франц. Д.И. Соловьева, М.: СГУ. 2008. С. 76.

20. Фрай О. Ложь. Три способа выявления. Как читать мысли лжеца, как обмануть детектор лжи. СПб, 2006. С. 27.

21.Бахин В.П. Полицейский допрос (советы допрашиваемому). Алматы.: 1997. С. 22.

22. Изоҳ

23. Гросс, Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики / Г. Гросс. – СПб: Типография М. Меркушева (СПб), 1908. – С. 26-27.

24. Пиз А., Гарнер А. Язык разговора: как разговаривать, чтобы договориться. Как совместить радость общения и пользу убеждения / пер. Т. Новикова. – М.: Эксмо, 2010. С. 159.

25. Власов А.И. Психолого-акмеологические технологии выявления заведомо ложных показаний в следственной деятельности: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. С. 19.

26. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси// https://lex.uz/docs/111460 (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 06.06.2023 й)

27. Ўзбекистон Республикасининг 14.01.2019 йилдаги “Жабрланувчиларни, гувоҳларни ва жиноят процессининг бошқа иштирокчиларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-515-сон қонуни 6-моддаси. https://lex.uz/ru/docs/4159913

28. Шапакидзе В.Я. Обеспечение процессуальной безопасности частных лиц в досудебном уголовном производстве: автореф. дис. … канд. юрид. наук. Волгоград, 2003. С. 4.

29. Ашуров Н.Н. Гувоҳнинг процессуал мақоми ва унинг процесс иштирокчиси сифатида хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. Ijodkor o‘qituvchi jurnali 5 dekabr / 2022 YIL / 24 – SON 154

30. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. М., 1967. С. 60.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: jxu@umail.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Cambria» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 12,5. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 27.06.2024 y. Buyurtma № 188.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

9 773030 323005

TAHRIRIYAT MANZILI:
100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni.
Tel: (71) 230-32-71
Faks: (71) 230-32-50
E-mail: mg_hti@umail.uz